

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI**  
**XALQ TA’LIM VAZIRLIGI**

**RO‘ZG‘ORSHUNOSLIK**

**O‘QITUVCHILAR UCHUN METODIK QO‘LLANMA**

**Toshkent – 2017**

**O.A.Quysinov, O.O.Tohirov, D.N.Mamatov, D.F.Aripova.**

Ro'zg'orshunoslik. Metodik qo'llanmasi umumiy o'rta ta'lim muassasalarida darslarni tashkil etishda foydalnisha mo'ljallangan. T.: O'zPFITI. 2017. - 48 b.

Mazkur metodik qo'llanmada umumiy o'rta ta'lim muassasalarida Texnologiya fani darslarini tashkil etish, ushbu jarayonda ro'zg'orshunoslik asoslari bo'limini o'qitish metodikasi hamda mavzularni o'quvchilarga yetkazish bo'yicha tavsiyalar berilgan.

Metodik qo'llanmadan umumiy o'rta ta'lim muassasasi Texnologiya fani o'qituvchilari, o'quvchilar shuningdek, Texnologiya yo'nalishi talabalari, magistrilar, metodistlar, o'qituvchilar va malaka oshirish va qayta tayyorlash kurslari tinglovchilari o'z faoliyatlarida foydalanishlari mumkin.

Ushbu qo'llanma PZ-2014-0912150534 – raqamli “Umumiy o'rta ta'lim maktablarida mehnat ta'limi fanini mazmunan modernizatsiyalash hamda ta'lim sifati va samaradorligini oshirish texnologiyalari” mavzusidagi amaliy tadqiqot loyihasi doirasida

### **Taqrizchilar:**

Toshkent shahar XTXQTUMOI, Amaliy fanlar va maktabdan tashqari ta'lim kafedrası mudiri L.Yunusov.

TDPU Kasb ta'limi metodikasi kafedrası p.f.n., dos. S.Boltaboev

O'ZPFITI Ilmiy kengashi tomonidan tasdiqlangan.

© O'zPFITI

## MUNDARIJA

| <b>T/r</b> | <b>Mavzular</b>                                                                                                                                                                                      | <b>Bet</b> |
|------------|------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|------------|
| <b>1.</b>  | Mehnat ta`limi fanidan taqvimiy-mavzuiy rejalashtirish                                                                                                                                               | <b>4</b>   |
| <b>2.</b>  | Pol qoplamalari hamda mebellarning laklangan va qoplamali yuzalarini saqlash tadbirlari va kichik ta`mirlash ishlari.                                                                                | <b>6</b>   |
| <b>3.</b>  | Binolarni isitish usullari. oyna romlarini kichik ta`mirlash va qishda issiqlikni saqlash usullari. Xizmat ko`rsatish sohalariga oid kasb-hunar turlari                                              | <b>9</b>   |
| <b>4.</b>  | Turli chokidan so`kilgan buyumlarni tikish                                                                                                                                                           | <b>15</b>  |
| <b>5.</b>  | Yurtimiz me`morchiligi tarixiga oid qisqacha ma`lumotlar. Xona intereri hamda jihozlanish dizayniga talablar. Sohaga oid yurtimizda tarkib topgan an`analar hamda zamonaviy taraqqiyot yo`nalishlari | <b>20</b>  |
| <b>6.</b>  | Kiyimlarni saqlash usullari. Kiyimga qarab turish qoidalari. Yamoq solish texnologiyasi. Amaliy mashg`ulot: yamoq solish                                                                             | <b>25</b>  |
| <b>7.</b>  | Pazandachilikda ishlatiladigan texnologik jihozlar va ulardan foydalanish                                                                                                                            | <b>31</b>  |
| <b>8.</b>  | Shahar va qishloq uylarida suv, gaz, elektr energiyasi va issiqlik ta`minoti tizimi va undan foydalanish qoidalari                                                                                   | <b>36</b>  |
| <b>9.</b>  | Iste`moldan chiqqan buyum o`lchamiga qarab, bolalar kiyimining andozasini tayyorlash va tikish                                                                                                       | <b>42</b>  |

# MEHNAT TA'LIMI FANIDAN TAQVIMIIY-MAVZUIY

## REJALASHTIRISH

### 5-sinf

#### DIZAYN VATEXNOLOGIYA YO'NALISHI

|   | <b>Uy-ro'zg'or buyumlarini ta'mirlash</b>                                                                                     | <b>4 soat</b> |
|---|-------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|---------------|
| 1 | Pol qoplamalari hamda mebellarning laklangan va qoplamali yuzalarini saqlash tadbirlari va kichik ta'mirlash ishlari.         | 2             |
| 2 | Oyna romlarini kichik ta'mirlash va qishda issiqlikni saqlash usullari. Xizmat ko'rsatkich sohalariga oid kasb-hunar turlari. | 2             |

#### SERVIS XIZMATI YO'NALISHI

|   | <b>Buyumlarni ta'mirlash texnologiyasi</b>                            | <b>2 soat</b> |
|---|-----------------------------------------------------------------------|---------------|
| 3 | <b>Amaliy mashg'ulot:</b> Turli chokidan so'kilgan buyumlarni tikish. | 2             |

### 6-sinf

#### TEXNOLOGIYA VA DIZAYNYO'NALISHI

|   | <b>Uy-ro'zg'or buyumlarini ta'mirlash</b>                                                                                                                                                                                 | <b>4 soat</b> |
|---|---------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|---------------|
| 1 | Yurtimiz me'morchiligi tarixiga oid qisqacha ma'lumotlar. Xona intereri hamda jihozlanish dizayniga talablar. Sohaga oid yurtimizda tarkib topgan an'analar hamda zamonaviy taraqqiyot yo'nalishlari.                     | 2             |
| 2 | <b>Amaliy mustaqil ishlar:</b> Xona va fanlar bo'yicha o'quv xonalarida mebel va qo'shimcha jihozlarni joylashtirish sxematik tasviri hamda eskizlarini tayyorlash. Taklif etilgan yechimlar asosida xonalarni jihozlash. | 2             |

#### SERVIS XIZMATI YO'NALISHI

|   | <b>Buyumlarni ta'mirlash texnologiyasi</b>                                                                                       | <b>2 soat</b> |
|---|----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|---------------|
| 3 | Kiyimlarni saqlash usullari. Kiyimga qarab turish qoidalari. Yamoq solish texnologiyasi. <b>Amaliy mashg'ulot:</b> yamoq solish. | 2             |

### 7-sinf

#### TEXNOLOGIYA VA DIZAYN YO'NALISHI

|   | <b>Uy-ro'zg'or buyumlarini ta'mirlash</b>                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                 | <b>4 soat</b> |
|---|-------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|---------------|
| 1 | Shahar va qishloq uylarida suv, gaz, elektr energiyasi va issiqlik ta'minoti tizimi va undan foydalanish qoidalari. Uy va xonadonlarni ta'mirlash ishlarining asosiy turlari. Ta'mirlashda qollaniladigan zamonaviy qurilish materiallari. Uy va xonadonlarni ta'mirlashda qo'llaniladigan asosiy ish asboblari. Qurilish va ta'mirlash bilan bog'liq kasb-hunarlar t'og'risida ma'lumot. | 2             |
| 2 | <b>Amaliy mustaqil ishlar:</b> Shahar va qishloq uylarida suv, gaz, elektr energiyasi va issiqlik ta'minoti tizimi sxematik tasvirini tayyorlash. Suv ta'minoti tizimi, suv quvurlari, ventil va jo'mraklarni sozlashda mayday ta'mirlash ishlari.                                                                                                                                        | 2             |

### SERVIS XIZMATI YO`NALISHI

|   | <b>Buyumlarni ta`mirlash texnologiyasi</b>                                                                                | <b>4 soat</b> |
|---|---------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|---------------|
| 3 | Iste`moldan chiqqan buyum o`lchamiga qarab, bolalar kiyimining andozasini tayyorlash va tikish.                           | 2             |
| 4 | <b>Amaliy mashg`ulot:</b> Iste`moldan chiqqan buyum o`lchamiga qarab, bolalar kiyimining andozasini tayyorlash va tikish. | 2             |

## UY RO`ZG`OR BUYUMLARINI TA`MIRLASH

### **1 mashg`ulot. Pol qoplamalari hamda mebellarning laklangan va qoplamali yuzalarini saqlash tadbirlari va kichik ta`mirlash ishlari**

#### **Dars maqsadi:**

**Ta'limiy:** o'quvchilarga pol qoplamalari hamda mebellarning laklangan va qoplamali yuzalarini saqlash tadbirlari va kichik ta'mirlash ishlari haqida umumiy ma'lumotlar berish;

**Tarbiyaviy:** texnika xavfsizligi qoidalari, pol qoplamalari hamda mebellarning laklangan va qoplamali yuzalarini saqlash tadbirlari va kichik ta'mirlash ishlarini bajarishda sanitariya gigiena talablariga rioya etishga o'rgatish;

**Rivojlantiruvchi:** o'quvchilarning pol qoplamalari hamda mebellarning laklangan va qoplamali yuzalarini saqlash tadbirlari va kichik ta'mirlash ishlarini bajarish ko'nikma va malakalarini shakllantirish, ilmiy izlanishga, ijodkorlikka yo'naltirish.

**Moddiy texnik jihatdan jihozlash va ko'rgazmali qurollar:** maktab ustaxonalarida ishlashdagi xavfsizlik texnikasiga oid jadvallar, namuna materiallar, proeksion materiallar, televideomateriallar, elektron materiallar, kompyuter, plakatlar, diapozitivlar, rasmlar, chizmalar, jadvallar, diagrammalar, darsliklar, metodik qo'llanma, ma'ruza matni, lug'atlar, ma'lumotnomalar, test materiallari, topshiriq kartochkalari, anketalar, tabiiy namunalar, xom-ashyo namunalari, test dasturlari, kodoskop, mustaqil bajarish topshiriqlari.

**Foydalaniladigan metodlar:** og'zaki, ko'rgazmali, "blits", "aqliy hujum" kabi interaktiv metodlar.

#### **Reja:**

1. Tashkiliy qism-5
2. O'tilgan mavzuni takrorlash-10
3. Yangi mavzuning bayoni-50
4. Yangi mavzuni mustahkamlash-20
5. Uyga vazifa berish-5

#### **Mashg`ulotning borishi**

**1. Tashkiliy qism.** Salomlashish, davomatni aniqlash, navbatchini tayinlash, o'quvchilarning mashg'ulotga tayyorgarlik darajasini nazorat qilish.

**2. O'tilgan mavzuni takrorlash.** Elektrotexnika ishlarini tashkil qilish, elektr o'tkazish simlari, montaj qilish, izolyatsiyalash, elektr asboblari bilan ishlash usullari haqidagi tushunchalarni takrorlaydi. O'qituvchi o'quvchilarning oy-ro'zg'or buyumlarini ta'mirlash haqidagi bilimlarini "blits" savollari orqali aniqlaydi.

### **3. Yangi mavzuning bayoni.**

**Kirish yo'riqnomasi:.** pol qoplamalari hamda mebellarning laklangan va qoplamali yuzalarini saqlash tadbirlari va kichik ta'mirlash ishlarini bajarish, xizmat ko'rsatish sohalari haqida ma'lumot beriladi. Darsda o'qituvchi xavfsizlik texnikasi bilan tanishtiradi. Ushbu mavzuni o'tishda asosiy vazifalar pol qoplamalari hamda mebellarning laklangan va qoplamali yuzalarini saqlash tadbirlari va kichik ta'mirlash ishlarini bajarishdan iborat.

**Joriy yo'riqnoma.** O'quvchilarga mavzu yuzasidan quyidagi ma'lumotlar beriladi: pol qoplamalari hamda mebellarning sifatli darajasini oshirish maqsadida bajariladigan ishlar yuzasidan tushunchalar beriladi.

Yog'och yuzalarga ishlov berish uchun mo'ljallangan maxsus kimyoviy vositalardan ehtiyotkorlik bilan foydalanish zarurligini tushuntirib borish kerak. Kichik ta'mirlash ishlarini ko'rsatib berish talab qilinadi.

**Yakuniy yo'riqnoma:** Yakuniy instruktaaj berish paytida o'qituvchi baholar qoyadilar (nazariya masalalari va ilgari o'rganilgan materialni bilishi; bilimlarni amalda qo'llay olishi; ish usullarini to'g'ri bajarishi; xavfsizlik texnikasi qoidalariga rioya qilishi; ish o'rnida belgilangan tartibni qo'llab-quvvatlashi; chizmani o'qiy olishi; topshiriqni mustaqil bajara olishi; bajargan ishning sifati; agar ish me'yorlanmsa, belgilangan me'yorda bajarishi). Bunda o'quvchilarning o'quv-ishlab chiqarish topshiriqlarini bajarishga qiziqishlari ancha ortadi.

### **4. Yangi mavzuni mustahkamlash.**

1. Pol va mebellarning laklangan va qoplamali yuzalarini saqlashda nimalarga e'tibor berish lozim.

2. Yog`och yuzalarga maxsus ishlov beruvchi kimyoviy vositalar haqida ma`lumot bering.

3. Kichik ta`mirlash ishlariga misollar keltiring.

**5. Uyga vazifa berish:**

1. Darslikdagi 33-mavzuni o`qib kelish va amaliy mustaqil ishlarni bajarish.

2. O`tilgan mavzu yuzasidan esse yozib kelish.

3. Uyda nosoz buyumlarda kichik ta`mirlash ishlarini bajarishni mashq qilish.

4. Savollarga javob berish.

**Pol qoplamalari hamda mebellarning laklangan va qoplamali yuzalarini saqlash tadbirlari va kichik ta`mirlash ishlari**

Pol qoplamalari hamda mebellarning sizga uzoq vaqt sifatli xizmat qilishi uchun ishlab chiqaruvchilar tomonidan berilgan tavsiyalarga rioya etish, joriy ta`mirlash ishlarini o`z vaqtida o`tkazib borish lozim.

Mebellarni isitish asboblari yaqiniga o`rnatish tavsiya etilmaydi. Shuningdek, quyosh nirlarining to`g`ridan-to`g`ri tushishi ham mebel uchun xavfli hisoblanadi, chunki, u haddan tashqari qiziganida qurib, o`z xususiyatlarini yo`qotadi. Xonada namlikni me'yorida bo`lishini ta'minlash uchun manzarali gullar, akvarium kabi namlik manbalari bo`lishi tavsiya etiladi.

Plastik bilan qoplangan mebel zarurat bo`lishiga qarab nam salfetka bilan artib turish etarli bo`ladi. Bu ishni yakunida mebel quruq salfetka bilan artilsa namlikning mebeldagi tirqishlari va himoyalangan ulanish joylariga tushishining oldi olinadi.

Shuningdek, yog`och yuzalarga ishlov berish uchun mo`ljallangan maxsus kimyoviy vositalar – polirollardan foydalanish mumkin. Faqat oshxonada ulardan foydalanishda oziq-ovqat mahsulotlariga tegishidan ehtiyot bo`lish kerak.

Shpon va faneradan tayyorlangan yuzalarni changdan muntazam tozalab borish tavsiya etiladi, bu ularning xizmat muddatini uzaytirishga xizmat qiladi.

Mebellarda yuzaga keladigan mayda nosozliklarni ustaga murojaat qilmasdan, o`zingiz ham vaqtida bartaraf etib borishingiz mumkin. Buning uchun

xonadoningizda maxsus asboblari va zarur furnituralar bo'lishi kerak. Misol uchun shkaf va tumbalar eshiklari qiyshayib qolganida mebelni polga nisbatan to'g'ri gorizontali holatga olib kelish lozim. Buning uchun uy sharoitida mebel oyoq'ini tagigakarton yoki platsmassa tagliklari qo'yish mumkin. Agar shkaf tagi egilib qolsa, u tashqaridan ko'rinmaydigan qilib tagidan yog'och tirgak bilan mustahkamlanadi.

Mebelning eshik va boshqa qismlaridagi sharnir detallari profilaktikasi barcha konstruksiyaning xizmat muddatini uzaytirishga xizmat qiladi. Undagi vint va boltlarni vaqtida maxsus asboblari yordamida burab, mustahkamlab turish lozim.

### **Mustahkamlash uchun savollar.**

1. Pol va mebellarning laklangan va qoplamali yuzalarini saqlashda nimalarga e'tibor berish lozim.
2. Yog'och yuzalarga maxsus ishlov beruvchi kimyoviy vositalari haqida ma'lumot bering.
3. Kichik ta'mirlash ishlariga misollar keltiring.

### **Amaliy-mustaqil ishlar**

Pol va mebellarning laklangan va qoplamali yuzalarini saqlash tadbirlari va kichik ta'mirlash ishlarini bajarish.

**Jihozlar:** Xavfsizlik texnikasi qoidalari plakati. Pol va mebellarning laklangan va qoplamali yuzalarini saqlash tadbirlariga oid materiallar.

## **2 mashg'ulot. Binolarni isitish usullari. Oyna romlarini kichik ta'mirlash va qishda issiqlikni saqlash usullari. Xizmat ko'rsatish sohalariga oid kasb-hunar turlari**

### **Dars maqsadi:**

**Ta'limiy:** o'quvchilarga binolarni isitish usullari, oyna romlarini kichik ta'mirlash va qishda issiqlikni saqlash usullari hamda xizmat ko'rsatish sohalariga oid kasb-hunar turlari haqida umumiy ma'lumotlar berish;

**Tarbiyaviy:** texnika xavfsizligi qoidalarini, binolarni isitish usullari, oyna romlarini kichik ta'mirlash va qishda issiqlikni saqlash usullarini bajarishda sanitariya gigiena talablariga rioya etishga o'rgatish;

**Rivojlantiruvchi:** o'quvchilarning binolarni isitish usullari, oyna romlarini kichik ta'mirlash va qishda issiqlikni saqlash usullari hamda xizmat ko'rsatish sohalariga oid kasb-hunar turlari to'g'risidagi ko'nikma va malakalarini shakllantirish, ilmiy izlanishga, ijodkorlikka yo'naltirish.

**Moddiy texnik jihatdan jihozlash va ko'rgazmali qurollar:** maktab ustaxonalarida ishlashdagi xavfsizlik texnikasiga oid jadvallar, namuna materiallar, proeksion materiallar, televideomateriallar, elektron materiallar, kompyuter, plakatlari, diapozitivlar, rasmlar, chizmalar, jadvallar, diagrammalar, darsliklar, metodik qo'llanma, ma'ruza matni, lug'atlar, ma'lumotnomalar, test materiallari, topshiriq kartochkalari, anketalar, tabiiy namunalari, xom-ashyo namunalari, test dasturlari, kodoskop, mustaqil bajarish topshiriqlari.

**Foydalaniladigan metodlar:** og'zaki, ko'rgazmali, "Skarabey", "aqliiy hujum" kabi interaktiv metodlar.

**Reja:**

1. Tashkiliy qism-5
2. O'tilgan mavzuni takrorlash-10
3. Yangi mavzuning bayoni-50
4. Yangi mavzuni mustahkamlash-20
5. Uyga vazifa berish-5

**Mashg'ulotning borishi**

**1. Tashkiliy qism.** Salomlashish, davomatni aniqlash, navbatchini tayinlash, o'quvchilarning mashg'ulotga tayyorgarlik darajasini nazorat qilish. O'qituvchi o'quvchilarning binolarni isitish usullari, oyna romlarini kichik ta'mirlash va qishda issiqlikni saqlash usullari hamda xizmat ko'rsatish sohalariga oid kasb-hunar turlari haqidagi bilimlarini "blits" savollari orqali aniqlaydi.

**2. O'tilgan mavzuni takrorlash.** Pol qoplamalari hamda mebellarning laklangan va qoplamali yuzalarini saqlash tadbirlari va kichik ta'mirlash ishlari haqidagi tushunchalarni takrorlaydi.

### **3. Yangi mavzuning bayoni.**

**Kirish yo'riqnomasi:.** binolarni isitish usullari, oyna romlarini kichik ta'mirlash va qishda issiqlikni saqlash usullari hamda xizmat ko'rsatish sohalariga oid kasb-hunar turlari haqida ma'lumot beriladi. Darsda o'qituvchi xavfsizlik texnikasi bilan tanishtiradi. Ushbu mavzuni o'tishda asosiy vazifalar binolarni isitish usullari, oyna romlarini kichik ta'mirlash va qishda issiqlikni saqlash usullari bajarishdan iborat.

**Joriy yo'riqnoma.** O'quvchilarga mavzu yuzasidan quyidagi ma'lumotlar beriladi: Binolarni isitish usulari, isitish qurilmasi va unga qoyiladigan vazifalarni amalga oshirish uchun isitish tizimini tashkil etuvchi alohida texnologik qismlardan tayyorlanishi haqida ma'lumot beriladi.

Isitish tizimi ikki xil turga, ya'ni markaziy va mahalliy turlarga bo'linishi, issiqlik uzatuvchi muhit, suv, bug', elektr yoki biror bir siqilgan yoqilg'i yordamida qizitilishi, issiqlik uzatilishi erkin yoki majburiy konvekstiya yordamida amalga oshirilishi haqida ma'lumotlar beriladi.

Oyna romlarini kichik ta'mirlash va qishda issiqlikni saqlash usullari ko'rsatib beriladi. Xizmat ko'rsatish sohalariga oid kasb-hunar turlari haqida darslikda berilgan kasblarni tushuntirib berish.

**Yakuniy yo'riqnoma:**Yakuniy instruktaj berish paytida o'qituvchi baholar qoyadilar (nazariya masalalari va ilgari o'rganilgan materialni bilishi; bilimlarni amalda qo'llay olishi; ish usullarini to'g'ri bajarishi; xavfsizlik texnikasi qoidalariga rioya qilishi; ish o'rnida belgilangan tartibni qo'llab-quvvatlashi; chizmani o'qiy olishi; topshiriqni mustaqil bajara olishi; bajargan ishning sifati; agar ish me'yorlanmsa, belgilangan me'yorda bajarishi). Bunda o'quvchilarning o'quv-ishlab chiqarish topshiriqlarini bajarishga qiziqishlari ancha ortadi.

### **4. Yangi mavzuni mustahkamlash.**

1. Isitish tizimining asosiy elementlari haqida ma'lumot bering.

2. Isitish tizimining markaziy va mahalliy turlari farqini aytib bering.

3. Oyna romlarini kichik ta'mirlash va qishda issiqlikni saqlash usullari haqida ma'lumot bering.

4. Xizmat ko'rsatish sohasiga oid kasb-hunar turlarini sanab bering.

#### **5. Uyga vazifa berish:**

1. Darslikdagi 34-mavzuni o'qib kelish va amaliy mustaqil ishlarni bajarish.
2. Uyda xonalarni isitish va oyna romlarini kichik ta'mirlash kabi ishlarni bajarish.
4. Savollarga javob berish.

### **Binolarni isitish usullari**

Isitish qurilmasi va unga qoyiladigan vazifalarni amalga oshirish uchun isitish tizimini tashkil etuvchi alohida texnologik qismlardan tayyorlanadi. Issiqlik tizimi – istiladigan xona uchun issiqlik miqdorini olish va uzatish uchun mo'ljallangan konstruktiv elementlar majmuasidir.

Isitish tizimining asosiy elementlari quyidagilardan iborat:

1. Issiqlik almashtiruvchi–yoqilg'ini yoqqanda yoki boshqa manbadan issiqlik oluvchi element.
2. Isitish asbobi – issiqlikni xonaga uzatuvchi element.
3. Issiqlik yo'llovchi – issiqlikni issiq almashtiruvchidan, isitish asbobiga uzatuvchi element.

Issiqlikni uzatilishi suyuq va gazsimon muhit yordamida amalga oshirilish mumkin. Issiqlik tizimida aralashuvchi suyuq (suv) yoki gazsimon (bug', havo,gaz) muhit issiqlik tashuvchi deb ataladi.

Isitish tizimi ikki xil turga, ya'ni markaziy va mahalliy turlarga bo'linadi.

**Markaziy isitish tizimi.** Markaziy tizim deb bir necha binoning yagona issiqlik markazidan issitishga mo'jallangan tizimlarga aytiladi. Bu tumanlararo bo'lishi mumkin bunda bir qancha binolar markaziy isitish tarmog'idan foydalaniladi.Markaziy isitish tizimida eng ko'p tarqalgani suvli isitish tizimlaridir. Ular bir va ikki quvurli isitish tizimlariga bo'linadi. Ikki quvurli tizimlarda ikkita parallel quvurlar o'rnatilib, quvurlardan yuboriladigan oxirgi stoyakka borgandan

so'ng qaytib ikkinchi quvur orqali qozonxonaga teskari yo'nalishda qaytadi. Bir quvurli isitish tizimlarda majburiy usulda aylantiriladi. Yoqilg'i turiga qarab uch xil isitish tizimi mavjud: pechkali, gaz va elektr gaz bilan ishlaydigan.

***Mahalliy istish tizimi.*** Isitishning mahalliy tizimi uchun xonalarning elementlari o'zaro birlashtiriladi ya'ni bitta qurilmadan doimiy ravishda qabul qilish, ko'chirish va uzatish tizimlaridir. Mahalliy isitish tizimining asosiy elementi isitish pechi hisoblanadi. Yonish yordamida olingan issiqlik (qattiq, suyuqyoki gazsimon) issiqlik almashtirgichda gazni issiqlik tashuvchi, issiqlikni uzatadigan kanallari orqali xonalarga isitish qurilmalari yetkazib beradi.

Issiqlik uzatuvchi muhit, suv, bug', elektr yoki biror bir siqilgan yoqilg'i yordamida qizitiladi. Issiqlik uzatilishi erkin yoki majburiy konvekstiya yordamida amalga oshiriladi. Bunday tizimlarda issiqlik tashuvchi, issiqlik markazida joylashgan issiqlik almashturuvchida isitiladi. Issiqlik quvurlari orqali aralashtirib alohida xonalarga isitish asboblari orqali berilib undan, so'ng issiqlik markaziga qaytadi.

### **Oyna romlarini kichik ta'mirlash va qishda issiqlikni saqlash usullari**

Isitiladigan binolarda tashqi va ichki harorat farqi tufayli tashqi devor, pol, shift orqali issiqlik yo'qoladi. Isitish tizimi mana shu yo'qoladigan issiqlikni o'rni qoplashi va xonalarda meyordagi haroratni saqlashi lozim.

Qishda xonada issiqlikni saqlash uchun avvalo zich yopilmaydigan oyna va elvizak hosil qilishi mumkin bo'lgan tirqishlarni yopib chiqish lozim. Xonadagi oyna romlarida mavjud tirqishlarni berkitish uchun avvalo ular porolon yoki paxta bilan yopib chiqiladi. So'ngra gazlamadan 4-5 sm enlikda, uzun tasma shaklidagi bo'laklar qirqib olinib, uning ustidan yopishtiriladi. Buning uchun gazlama bo'laklari suvda namlab ivitiladi, suvi siqilib, yopishtiriladigan tomoni sovun bilan surkab chiqiladi. Gazlamaning bu usulda yopishtirib chiqilishi bahorda uning olib tashlanishini osonlashtiradi. Shuningdek, oyna romlarini zichlab yopishda ingichka ip arqondan foydalanish mumkin.

Xonada yopilishi kerak bo'lgan boshqa kichik tirqishlar parafin yordamida berkitilishi mumkin. Buning uchun sham yasaladigan oddiy parafin 65-70 gradusli

suvda eritiladi. Shundan so`ng isitilgan bir martalik ishlatiladigan shprits olinib parafin bilan to`ldiriladi va tirqishlarga purkab chiqiladi.

Xonada issiqlikni saqlashda sanoat usulida ishlab chiqarilayotgan zamonaviy zichlagichlardan foydalanish mumkin. Ular asosan naysimon shaklda tayyorlanadi. Shuningdek katta tirqishlar uchun P, mayda tirqishlar uchun D, E harflari shaklida bo`lishi mumkin.

### **Xizmat ko`rsatish sohalariga oid kasb-hunar turlari**

Maktabni muvaffaqiyatli tugallaganingizdan so`ng kasb-hunar kollejlarda xizmat ko`rsatish sohalariga oid quyidagu kasblarni egallashingiz mumkin:

- gidroenergetika jihozlarini ta'mirlash va sozlash mexanigi;
- metallurgiya va sanoat jihozlariga texnik xizmat ko'rsatish, sozlash, ta'mirlash va montaj qilish mexanigi;
- mashinasozlik tizimlari va dastgohlik jihozlarini montaj qilish, sozlash, texnik xizmat ko'rsatish va ta'mirlash mexanigi;
- avtomatlashtirilgan tizimlarga texnik xizmat ko'rsatish, ta'mirlash va sozlash mexanigi;
- texnologik mashinalar va sanoat jihozlarini sozlash, xizmat ko'rsatish va ta'mirlash mexanigi;
- shamollatish tizimlari, sovutish, kriogen texnikalari agregatlari va mashinalarini montaj qilish, sozlash va ishlatish mexanigi;
- non, makaron va qandolat mahsulotlarini ishlab chiqarish uskunalari sozlash mexanigi;
- elevator, un-yorma va omuxta em ishlab chiqarish uskunalari sozlash mexanigi.

### **Mustahkamlash uchun savollar.**

1. Isitish tizimining asosiy elementlari haqida ma`lumot bering.
2. Isitish tizimining markaziy va mahalliy turlari farqini aytib bering.
3. Oyna romlarini kichik ta`mirlash va qishda issiqlikni saqlash usullari haqida ma`lumot bering.
4. Xizmat ko`rsatish sohalariga oid kasb-hunar turlarini sanab bering.

## **Amaliy-mustaqil ishlar**

Binolarni isitish usullari. Oyna romlarini kichik ta'mirlash va qishda issiqlikni saqlash usullarini bajarish. Xizmat ko'rsatish sohalariga oid kasb-hunar turlariga oid ma'lumotlar to'plash.

**Jihozlar:** Xavfsizlik texnikasi qoidalari plakati. Oyna romlarini kichik ta'mirlash va qishda issiqlikni saqlash usullarini bajarishga oid materiallar.

## **5 – SINF SERVIS XIZMATI YO'NALISHI**

### **BUYUMLARNI TA'MIRLASH TEXNOLOGIYASI**

**3 - mashg'ulot: Amaliy mashg'ulot: Turli chokidan so'kilgan buyumlarni tikish**

**Dars maqsadi:**

**Ta'limiy:** O'quvchilarga turli chokidan so'kilgan buyumlarni tikish yo'llarini o'rgatish.

**Tarbiyaviy:** O'quvchilarni so'kilgan joyni tikish jarayonidaozoda, sifatli vatez ishlashgaodatlantirish

**Rivojlantiruvchi:** O'quvchilarda so'kilgan joyni tikishda buyum turiga qarab ip rangi vachok turini to'g'ri tanlash ko'nikmalarini rivojlantirish.

**Dars tipi:** Ko'nikma va malakalarni shakllantirish.

**Dars shakli:** Amaliy mashg'ulot.

**Dars metodi:** og'zaki, munozara, klaster, ko'rgazmali

**Fanlararo bog'lanish:** rasm, matematika.

**Moddiy texnik jihatdan jihozlash va ko'rgazmali qurollar:**chokidan so'kilgan buyumlar namunalari, mavzugaooid buklet, slaydlar, o'quv qurollari, kompyuter

**Dars o'tish yuzasidan metodik tavsiyalar**

Bu mavzuni o'qitishda munozara, savol-javob tarzidaolib boriladi. Shuningdek, kompyuter texnikasi yordamida slaydlar va videomateriallar namoyish etish mumkin. So'kilgan va yirtilgan joyni tikish ko'rsatmali tarzda bajarib o'rgatiladi. O'quvchilar so'kilgan va yirtilgan joyni tikishni amaliy

ravishda bajaradilar, ularning ishlari nazorat qilib turiladi va ish davomida yo'riqnomalar berib boriladi. O'quvchilarga ish jarayonida ishlatilayotgan asboblari va moslamalar: igna, qaychiangishvona, santimetrli lentalarining har birini nomi, vazifasi va foydalanish yo'llari o'rgatiladi.

### **Dars mashg'uloti yuzasidan nazariy ma'lumotlar**

O'quvchilarga so'kilgan va yirtilgan buyum namunalari ko'rsatiladi va bajarish tartibi gaprib beriladi. Kerakli ish qurollari, asbob moslamalar haqida bayon qilinadi. Ta'mirlash turlari haqida gapirib beriladi.

*Tugma qadash.* Agar tugma tushib qolgan va unga to'g'ri keladigan (bor bo'lsa, o'zini) bo'lmasa, hamma tugmalarni olib tashlab, yangi bir xil tugmalarni qadab olish kerak. Tugmalar yengil kiyimlar uchun bir tomonlama, palto, kostyumlar uchun ikki tomonlama qadaladi (ustiga katta tugma, tagiga mayda tugma); rasmda ko'rsatilgan.

*Knopka ilgaklar tikish.* Qadab tikilgan joy kiyimdaxunuk ko'rinmasligi, yaxshi jipslashishi uchun knopkalar ikki qavat matoga tikiladi. Buning uchun matochetidan tasmasimon astar qoyib tikish, knopkaning pastki va ustki qismlari tekis jipslashishini ta'minlash uchun knopkalar bir tekis o'rnatilishi (oldin knopkaning ostki qismi, keyin ustki qismi qadalishi) kerak.

*Ilmoqlar tikish.* Ilmoqlarning har xil turlari bor. Ilmoqlar ochilib ketmasligi uchun birining halqachasi chap tomonga, ikkinchisidiki esa o'ng tomonga tikilgani ma'qul (masalan, yubkaning yuqori belbog' qismida). Ilmoq va uning halqasi mustahkam bo'lishi uchun ularni ikki qavat matoga qadab tikish lozim. Buning uchun qadaladigan joy aniq belgilanib teshiladi, ilmoqning halqaga tikiladigan qismi sirtgachiqariladi, orqada qolgan qismi teshigiga kamarchayoki jiyak o'tkazilib, matoga tikiladi. Ilmoq uch joyidan: teshiklari va ilinadigan qismi tagidan tikiladi. Bunda, 20, 30 – nomerli, matoning rangidagi ipdan foydalanish kerak. Ilmoqning metall halqasi bo'rtib ko'zgaxunuk ko'rinmasligi uchun ilinadigan qismigina qoldirilib, qolgan qismi matogatekis qadab tikib chiqiladi.

Ustidan jiyak tikiladi. Shim ilmog'i qadalayotgandaorqa qismidan mato jiyak, kamarcha o'tkazilib, shimning kamar qismi astariga tikiladi, ilmoqning ilinadigan qismi chiqarilib, yuqori va pastki ikki teshigidan tikiladi.

*Ilgak tikish.* Ilgak so'kilgan bo'lsa, yana qayta o'rniga mahkamlab (4-5 marta) chatib qoyiladi, agar uzilib ketgan bo'lsa, o'ziga to'g'ri keladigan gazlamadan bichib olib, yangidan tikiladi (rasmda ko'rsatilgan). Buning uchun eni 2 sm, boyi 6 sm gazlamani to'rtga buklab, ochiq tomonini yo'rmab qiyiq chokda tikiladi. Tayyor ilgakni eski ilgakning o'rnini tozalab, kiyimning tegishli joyiga qoyib qayriladi vaavval bir tomonini, keyin ikkinchi tomonini tikib chiqiladi. Mashinada buklangan qirqimlari ustidan baxyaqator tikiladi. So'kilgan chokni tikish

Agar kiyimning choki so'kilgan bo'lsa, o'z yo'li bilan mashinachokidayoki qo'l chokida kiyimga mos rangli ip bilan tikiladi va dazmollanadi.

*Yamoq solib tikish.* Kiyimning yirtilgan, teshilgan, kuygan, sitilgan joylari bo'lsa, yamoq solinadi. Yamoq solish kiyimning turiga qarab, masalan, oddiy yamoq solish kiyimning ustidan yoki tagidan yamoq qoyib bajariladi.

Yirtilgan joyni mo'ljallab, rangni moslab yamoq qirqib olinadi, hammasini yaxshilab, tekis qilib dazmollanadi. Yamoqni kiyimdagi yirtiq joyning tagiga qoyib ko'klab chiqiladi. Yirtiqning atrofini qaychi bilan to'g'rilab qirqib chiqiladi va ichiga qayirib chetidan yoki yashirin chok bilan tikiladi va ko'klash choki olib tashlanadi, keyin chok dazmollanadi.

Ustqurmayamoq kiyimlarning simmetriyasiga qarab bajariladi. Masalan, shimning tizzasi yirtilgan bo'lsa, ko'ylak yengining tirsagi yoki bittacho'ntak yirtilgan bo'lsa, yamoq har ikkala tizzaga, ikkala tirsakka, ikkalacho'ntakka bir xil qilib solinadi, bunday yamoqni bezak yamoq deyiladi. Yamab bo'lingandan keyin bostirib dazmollanadi.

Kiyimlarni tuzatishda ish o'rnini tashkil qiiish

Bajariladigan ishga qarab ish o'rni tayyorlanadi. Bajariladigan ishlar qo'lda tikish, tugma qadash, petlya tikish, yamoq so'kish, ilgak chatishdan iborat bo'lsa, stol va stulni yorug' yaxshi tushadigan joyga qoyiladi. Ish qutichasi vakerakli

asboblari tayyorlanadi. Mashina, dazmol ishlari shu moslamalar turgan joyda bajariladi.

### **O'quvchilarga uyga topshiriqlar beriladi**

O'tilgan barcha mavzularni o'qib kelish. Testga va savol-javoblarga tayrgarlik qilish.

### **AMALIY MASHG'ULOT. Turli chokidan so'kilgan buyumlarni tikish**

Kiyimlarni tuzatishda ish o'rnini to'g'ri tashkil qilish kerak. Bajariladigan ishga qarab ish o'rni tayyorlanadi. Bajariladigan ishlar qo'lda tikish, tugma qadash, petlya tikish, yamoq solish, kiyimning so'kilgan choklarini tikish, ilgak chatishdan iborat bo'lishi mumkin. Bu ishlar uchun stol va stul, tikuv mashinasi, dazmol, ish qutichasi va kerakli asboblari tayyorlanadi. Ish joyiga yorug'lik yaxshi tushib turishi kerak.

Ayrim hollarda kiyimning choki so'kilib ketadi. Keskin qilingan harakat, juda katta qadam tashlash, kiyim tikilgan iplarning sifatsizligi choklarning so'kilishiga sabab bo'ladi.


Kiyimning so'kilgan joyini tikish qo'lda yoki mashinada bajariladi. Buning uchun gazlama rangidagi g'altak ipi va igna kerak bo'ladi. Igna gazlama qalinligiga mos bo'lishi lozim.

**Amaliy ish:** *Turli chokidan so'kilgan buyumlarni tikish*


**Asbob va moslamalar:** ish qutichasi, g'altak ip, igna

Ish quyidagi tartibda olib boriladi (1-rasm):


1. Tamirlanadigan joy aniqlanadi. So'kilgan joyidagi iplari olib tashlanib dazmollanadi (1-rasm, a)
2. So'kilgan joy to'g'nog'ichlanadi va qo'lda ko'klanadi (1-rasm, b)
3. So'kilgan joyini qo'lda qaytma chok bilan mashina chokining qatorida tikib chiqiladi (1-rasm, c)
4. Ko'klov choklari olib tashlanadi va chok dazmollanadi.
5. Bajarilgan ishning sifatini tekshirib chiqiladi, ya'ni tikilgan qo'l qavig'i maydami, mashina chokining qatoriga to'g'ri keladimi, tekis tikilganmi.



a



b



c

### 1-rasm. So'kilgan chokni tikish

**Amaliy ish:** Gazlamani yirtilgan joyini tikish

**Asbob va moslamalar:** ish qutichasi, g'altak ip, igna


Ish quyidagi tartibda olib boriladi (2-rasm):

1. Gazlamani yirtilgan joyidan o'ngini ichkariga qilib, qirqimlarini bir-biriga to'g'rilab ikkiga buklanadi. Yirtilgan joy to'g'nog'ichlanadi va qo'lda ko'klanadi (2-rasm, a)


2. Yirtilgan qirqimni mayda yo'rma qaviqda qo'lda tikib chiqiladi (2-rasm, b).

3. Ko'klov choklari olib tashlanadi va chok dazmollanadi.

4. Bajarilgan ishning sifatini tekshirib chiqiladi, ya'ni tikilgan qo'l qavig'i maydami, mashina chokining qatoriga to'g'ri keladimi, tekis tikilganmi.



a



b

### 2-rasm. Yirtilgan chokni tikish

**Mustahkamlash uchun savollar:**

1. Nima uchun kiyimlar chokidan so'kiladi?
2. So'kilgan chokni tikishda qanday chok turidan foydalaniladi?
3. Yirtilgan chokni tikishda qanday chok turidan foydalaniladi?
4. Kiyimni ta'mirlashda ipni qanday tanlanadi?
5. So'kilgan joyni tikish qanday bosqichlardan iborat?

## 6 SINIF TEXNOLOGIYA VA DIZAYIN YO'NALISHI

### UY RO'ZG'OR BUYUMLARINI TA'MIRLASH

**1 mashg'ulot.**Yurtimiz me'morchiligi tarixiga oid qisqacha ma'lumotlar.  
**Xona intereri hamda jihozlanish dizayniga talablar. Sohaga oid yurtimizda tarkib topgan an'analar hamda zamonaviy taraqqiyot yo'nalishlari.**

#### **Dars maqsadi:**

**Ta'limiy:** o'quvchilarga yurtimiz me'morchiligi tarixiga oid qisqacha ma'lumotlar. Xona intereri hamda jihozlanish dizayniga talablar. Sohaga oid yurtimizda tarkib topgan an'analar hamda zamonaviy taraqqiyot yo'nalishlari haqida umumiy ma'lumotlar berish;

**Tarbiyaviy:** o'quvchilarga yurtimiz me'morchiligi tarixi, xona intereri hamda jihozlanish dizayniga oid estetik tarbiyani shakllantirish;

**Rivojlantiruvchi:** o'quvchilarning yurtimiz me'morchiligi tarixiga oid qisqacha ma'lumotlar. Xona intereri hamda jihozlanish dizayniga talablar. Sohaga oid yurtimizda tarkib topgan an'analar hamda zamonaviy taraqqiyot yo'nalishlari ishlarini bajarish ko'nikma va malakalarini shakllantirish, ilmiy izlanishga, ijodkorlikka yo'naltirish.

**Moddiy texnik jihatdan jihozlash va ko'rgazmali qurollar:** maktab ustaxonalarida ishlashdagi xavfsizlik texnikasiga oid jadvallar, namuna materiallar, proeksion materiallar, televideomateriallar, elektron materiallar, kompyuter, plakatlar, diapozitivlar, rasmlar, chizmalar, jadvallar, diagrammalar, darsliklar, metodik qo'llanma, ma'ruza matni, lug'atlar, ma'lumotnomalar, test materiallari, topshiriq kartochkalari, anketalar, tabiiy namunalar, xom-ashyo namunalari, test dasturlari, kodoskop, mustaqil bajarish topshiriqlari.

**Foydalaniladigan metodlar:** og'zaki, ko'rgazmali, "blits", "aqliiy hujum" kabi interaktiv metodlar.

#### **Reja:**

1. Tashkiliy qism-5
2. O'tilgan mavzuni takrorlash-10
3. Yangi mavzuning bayoni-50

4. Yangi mavzuni mustahkamlash-20

5. Uyga vazifa berish-5

### **Mashg`ulotning borishi**

**1. Tashkiliy qism.** Salomlashish, davomatni aniqlash, navbatchini tayinlash, o`quvchilarning mashg`ulotga tayyorgarlik darajasini nazorat qilish.

**2. O`tilgan mavzuni takrorlash.** Elektrotexnika ishlarini tashkil qilish, elektr o`tkazish simlari, montaj qilish, izolyatsiyalash, elektr asboblari bilan ishlash usullarihaqidagi tushunchalarni takrorlaydi. O`qituvchi o`quvchilarning oy-ro`zg`or buyumlarini ta`mirlash haqidagi bilimlarini “blits” savollari orqali aniqlaydi.

### **3. Yangi mavzuning bayoni.**

**Kirish yo`riqnomasi:.** Yurtimiz me`morchiligi tarixiga oid qisqacha ma`lumotlar. Xona intereri hamda jihozlanish dizayniga talablar. Sohaga oid yurtimizda tarkib topgan an`analar hamda zamonaviy taraqqiyot yo`nalishlari, xizmat ko`rsatish sohalari haqida ma`lumot beriladi. Darsda o`qituvchi xavfsizlik texnikasi bilan tanishtiradi. Ushbu mavzuni o`tishda asosiy vazifalar pol qoplamalari hamda mebellarning laklangan va qoplamali yuzalarini saqlash tadbirlari va kichik ta`mirlash ishlarini bajarishdan iborat.

**Joriy yo`riqnoma.** O`quvchilarga mavzu yuzasidan quyidagi ma`lumotlar beriladi: Yurtimiz me`morchiligi tarixiga oid qisqacha ma`lumotlar. Xona intereri hamda jihozlanish dizayniga talablar. Sohaga oid yurtimizda tarkib topgan an`analar hamda zamonaviy taraqqiyot yo`nalishlaribo`yicha tushunchalar beriladi.

**Yakuniy yo`riqnoma:**Yakuniy instruktaj berish paytida o`qituvchi baholar qoyadilar (nazariya masalalari va ilgari o`rganilgan materialni bilishi; bilimlarni amalda qo`llay olishi; ish usullarini to`g`ri bajarishi; xavfsizlik texnikasi qoidalariga rioya qilishi; ish o`rnida belgilangan tartibni qo`llab-quvvatlashi; chizmani o`qiy olishi; topshiriqni mustaqil bajara olishi; bajargan ishning sifati; agar ish me`yorlanmsa, belgilangan me`yorda bajarishi). Bunda o`quvchilarning o`quv-ishlab chiqarish topshiriqlarini bajarishga qiziqishlari ancha ortadi.

### **4. Yangi mavzuni mustahkamlash.**

1. Yurtimiz me'morchiligi tarixiga oid qisqacha ma'lumotlar.
2. Xona intereri hamda jihozlanish dizayniga talablar.
3. Sohaga oid yurtimizda tarkib topgan an'analar hamda zamonaviy taraqqiyot yo'nalishlari nimalarga e'tibor berish lozim

#### **5. Uyga vazifa berish:**

1. Darslikdagi 33-mavzuni o'qib kelish va amaliy mustaqil ishlarni bajarish.
2. O'tilgan mavzu yuzasidan esse yozib kelish.
3. Uyda nosoz buyumlarda kichik ta'mirlash ishlarini bajarishni mashq qilish.
4. Savollarga javob berish.

#### **Yurtimiz me'morchiligi tarixiga oid qisqacha ma'lumotlar**

O'zbekistontarixanilm-fan, ma'rifat, san'at, madaniyatvama'naviyatbarquribgullaganzaminbo'lgan, undajahonningBuyukzotlariZardusht, Abdullaal-Buxoriy, At-Termiziy, AhmadYassaviy, MusoXorazmiy, AhmadFarg'oniy, AbuNasrFarobiy, AbuRayhonBeruniy, IbnSino, MuhammadTarag'ayUlug'bek, AlisherNavoiykabilartug'ilib, yashab, ijodetib, kelajakavlodlaruchunfaxrlanishgaarzigulikilmiyvamadaniymerosqoldiribketganlar.

BobokalonlarimizKo'xnaUrgench, Afrosiyob, Kat, Varaxsha, Axsikat, O'tror, Yangikatkabig'oyatgo'zalshaharlarbunyodetganlarhamdaxozirgikundagiSamarqand, Buxoro, Farg'ona, Toshkent, Xeva, Qo'qon, Koson, Termezkabiqadimiyshaharlarnimerosqilibqoldirganlar.

O'zbekistonmustaqillikkaerishgachmilliyme'morchilikvamilliyshaharsozliksan'atirivojigahamkattayo'lochildi.

Harbiralqniavamamlakatnimilliyana'nalairininamoyishetishdame'morchilikvashaharsozlikalo'hidaahamiyatkasbetadi. Chunki, harbirmillatni, halqniavadlatnimadaniyati, ma'naviyativaan'anaviyurf-odatlarini, ilmiyutafakkurininamoyishetishdauningsan'ativame'morchiligi'alo'hidaahamiyatkasbetadi. Shungako'ramustaqilliknidastlabkiyillaridanoqmamlakatimizdame'morchilikvashaharsozliksan'atigaalo'hidae'tiborberibkelinmoqda.

**Xona va fanlar bo'yicha o'quv xonalarida mebel va qo'shimcha jihozlarni joylashtirish sxematik tasviri hamda eskizlarini tayyorlash. Taklif etilgan yechimlar asosida xonalarni jihozlash.**

**Dars maqsadi:**

**Ta'limiy:** o'quvchilarga Xona va fanlar bo'yicha o'quv xonalarida mebel va qo'shimcha jihozlarni joylashtirish sxematik tasviri hamda eskizlarini tayyorlash. Taklif etilgan yechimlar asosida xonalarni jihozlash haqida umumiy ma'lumotlar berish;

**Tarbiyaviy:** texnika xavfsizligi qoidalari, Xona va fanlar bo'yicha o'quv xonalarida mebel va qo'shimcha jihozlarni joylashtirish sxematik tasviri hamda eskizlarini tayyorlash. Taklif etilgan yechimlar asosida xonalarni jihozlash usullarini bajarishda sanitariya gigiena talablariga rioya etishga o'rgatish;

**Rivojlantiruvchi:** o'quvchilarning Xona va fanlar bo'yicha o'quv xonalarida mebel va qo'shimcha jihozlarni joylashtirish sxematik tasviri hamda eskizlarini tayyorlash. Taklif etilgan yechimlar asosida xonalarni jihozlash to'g'risidagi ko'nikma va malakalarini shakllantirish, ilmiy izlanishga, ijodkorlikka yo'naltirish.

**Moddiy texnik jihatdan jihozlash va ko'rgazmali qurollar:** maktab ustaxonalarida ishlashdagi xavfsizlik texnikasiga oid jadvallar, namuna materiallar, proeksion materiallar, televideomateriallar, elektron materiallar, kompyuter, plakatlar, diapozitivlar, rasmlar, chizmalar, jadvallar, diagrammalar, darsliklar, metodik qo'llanma, ma'ruza matni, lug'atlar, ma'lumotnomalar, test materiallari, topshiriq kartochkalari, anketalar, tabiiy namunalar, xom-ashyo namunalari, test dasturlari, kodoskop, mustaqil bajarish topshiriqlari.

**Foydalaniladigan metodlar:** og'zaki, ko'rgazmali, "Skarabey", "aqliyl hujum" kabi interaktiv metodlar.

**Reja:**

1. Tashkiliy qism-5
2. O'tilgan mavzuni takrorlash-10
3. Yangi mavzuning bayoni-50
4. Yangi mavzuni mustahkamlash-20

## 5. Uyga vazifa berish-5

### **Mashg`ulotning borishi**

**1. Tashkiliy qism.** Salomlashish, davomatni aniqlash, navbatchini tayinlash, o`quvchilarning mashg`ulotga tayyorgarlik darajasini nazorat qilish. O`qituvchi o`quvchilarning Xona va fanlar bo`yicha o`quv xonalarida mebel va qo`shimcha jihozlarni joylashtirish sxematik tasviri hamda eskizlarini tayyorlash. Taklif etilgan yechimlar asosida xonalarni jihozlash haqidagi bilimlarini “blits” savollari orqali aniqlaydi.

**2. O`tilgan mavzuni takrorlash.** Pol qoplamalari hamda mebellarning laklangan va qoplamali yuzalarini saqlash tadbirlari va kichik ta`mirlash ishlari haqidagi tushunchalarni takrorlaydi.

### **3. Yangi mavzuning bayoni.**

**Kirish yo`riqnomasi:.** Xona va fanlar bo`yicha o`quv xonalarida mebel va qo`shimcha jihozlarni joylashtirish sxematik tasviri hamda eskizlarini tayyorlash. Taklif etilgan yechimlar asosida xonalarni jihozlash haqida ma`lumot beriladi. Darsda o`qituvchi xavfsizlik texnikasi bilan tanishtiradi. Ushbu mavzuni o`tishda asosiy vazifalar binolarni isitish usullari, oyna romlarini kichik ta`mirlash va qishda issiqlikni saqlash usullari bajarishdan iborat.

**Joriy yo`riqnoma.** O`quvchilarga mavzu yuzasidan quyidagi ma`lumotlar beriladi: Xona va fanlar bo`yicha o`quv xonalarida mebel va qo`shimcha jihozlarni joylashtirish sxematik tasviri hamda eskizlarini tayyorlash. Taklif etilgan yechimlar asosida xonalarni jihozlash amalga oshirilishi xaqida ma`lumotlar beriladi.

**Yakuniy yo`riqnoma:** Yakuniy instruktaj berish paytida o`qituvchi baholar qoyadilar (nazariya masalalari va ilgari o`rganilgan materialni bilishi; bilimlarni amalda qo`llay olishi; ish usullarini to`g`ri bajarishi; xavfsizlik texnikasi qoidalariga rioya qilishi; ish o`rnida belgilangan tartibni qo`llab-quvvatlashi; chizmani o`qiy olishi; topshiriqni mustaqil bajara olishi; bajargan ishning sifati; agar ish me`yorlanmsa, belgilangan me`yorda bajarishi). Bunda o`quvchilarning o`quv-ishlab chiqarish topshiriqlarini bajarishga qiziqishlari ancha ortadi.

#### **4. Yangi mavzuni mustahkamlash.**

1. Xona va fanlar bo'yicha o'quv xonalarida mebel va qo'shimcha jihozlarni joylashtirish sxematik tasviri hamda eskizlarini tayyorlash haqida ma'lumot bering.
2. Taklif etilgan yechimlar asosida xonalarni jihozlash turlari aytib bering.
4. Xizmat ko'rsatish sohalariga oid kasb-hunar turlarini sanab bering.

#### **5. Uyga vazifa berish:**

1. Darslikdagi 34-mavzuni o'qib kelish va amaliy mustaqil ishlarni bajarish.
2. Xona va fanlar bo'yicha o'quv xonalarida mebel va qo'shimcha jihozlarni joylashtirish sxematik tasviri hamda eskizlarini tayyorlash ishlarinibajarish.
4. Savollarga javob berish.

### **6 SINF. SERVIS XIZMATI YO'NALISHI**

#### **BUYUMLARNI TA'MIRLASH TEXNOLOGIYASI**

**2 mashg'ulot.Kiyimlarni saqlash usullari. Kiyimga qarab turish qoidalari. Yamoq solish texnologiyasi. Amaliy mashg'ulot:yamoq solish**

#### **Dars maqsadi:**

**Ta'limiy:** O'quvchilarga kiyimlarni saqlash usullari, kiyimga qarab turish qoidalari, yamoq solish texnologiyasi vayamoq solish yo'llarini o'rgatish.

**Tarbiyaviy:** O'quvchilarni amaliy mashg'ulot jarayonida o'zida, sifatli vatez ishlashga odatlantirish

**Rivojlantiruvchi:** O'quvchilarda kiyimlarni saqlash usullari, kiyimga qarab turish qoidalari, yamoq solish texnologiyasi vayamoq solish ko'nikmalarini rivojlantirish.

**Moddiy texnik jihatdan jihozlash va ko'rgazmali qurollar:** mavzuga oid buklet, slaydlar, kompyuter, andoza qog'ozlari, andozalar, ish qutisi, santimetr lentasi, chizg'ich, bo'r, qalam, qaychi, gazlama bo'laklari, yamoq solinadigan kiyim, igna, tikuv mashinasi, angishvona

#### **Dars o'tish yuzasidan metodik tavsiyalar**

Bu mavzuni o'qitishda munozara, savol-javob tarzida olib boriladi. Shuningdek, kompyuter texnikasi yordamida slaydlar va videomateriallar namoyish etish mumkin. Yamoq solish texnologiyasi vayamoq solish ko'rsatmali

tarzda bajarib o'rgatiladi. O'quvchilar yamoq solish uchun kichik andozachalar tayyorlashni va tikilgan buyumgayamoq solishni amaliy ravishda bajaradilar, ularning ishlari nazorat qilib turiladi va ish davomida yo'riqnomalar berib boriladi. O'quvchilarga ish jarayonida ishlatilayotgan asboblari va moslamalar: igna, qaychiangishvona, santimetrli lentalarining har birini nomi, vazifasi va foydalanish yo'llari o'rgatiladi.

### **Dars mashg'uloti yuzasidan nazariy ma'lumotlar**

*Kiyimlarni saqlash usullari. Kiyimga qarab turish qoidalarini.* Kiyimni saqlash ham kiyinish madaniyatiga kiradi. Madaniy kiyinishga intilgan inson kiyimini toza tutishi, bejirim kiyinishi, dog', kir bo'lgan, g'ijimlangan kiyimni kiyimasligi, yaxshi dazmollab kiyishkerak. Har gal kiyinayotganda kiyimni yaxshilab ko'zdan kechirib, so'kilgan joylarini yaxshilab tikish, har bir tugma o'z o'rnida va mustahkamligiga ishonch hosil qilgandan keyingina kiyinish lozim.

Kiyimni ehtiyotkorlik bilan hamda o'z vaqtida, o'z o'rnida kiyilsa, u uzoq chidaydi vayangidek ko'rinadi. Shuning uchun uyda, maktabda, sport mashg'ulotlarida vazimatda kiyiladigan kiyimlarni avaylab, o'z vaqtida joyiga qoyib saqlash maqsadga muvofiqdir.

Hamma kiyim ham, ayniqsa, jun va kimyoviy tolali gazlamalardan tikilgan kiyimlar turli hidlarni tortadi, shuning uchun ham kiyimlarni changdan tozalab, shamollatib turish tavsiya qilinadi.

Kiyimlarni saqlash qoidalariga quyidagilarni kiritish mumkin: kiyimlarni iflos qilmaslik zarur; qo'lni yuvayotgandayengni shimarib olish kerak; uy yumushlarini bajarishda fartuk vayenglik kiyib olish zarur; maktabdan kelgach, maktab formasini yechib, uylik kiyimlarni kiyib olish va formani kiyim ilgichga (veshalkaga) ilib qoyish kerak; yerga o'tirmaslik, stuldayoki o'tirish uchun mo'ljallangan toza joyda o'tirish zarur. Kiyimlarni har kuni cho'tkalab tozalash kerak; kiyiladigan kiyimning hamma joyi toza va butun bo'lga e'tibor berish kerak, ya'ni:

- a) tugmasi uzilgan bo'lsa, qadab olish;
- b) ilgagi uzilgan bo'lsa, chatib qoyish;

- v) so'kilgan choklarini o'z vaqtida tikish;
- g) kiyimda yirtiq bo'lsa, uni yamash;
- d) kiyimni doimo dazmollab yurish.

Har bir kiyim, u tikilgan gazlama turiga qarab alohida e'tibor talab qiladi: yuvish, dazmollash, kimyoviy tozalash qoidalari ifodalangan shartli belgilar kiyim choklariga tikib qoyilgan bo'ladi.

*Yamoq solish texnologiyasi.* Kiyimlarni yirtilgan joylarini ko'zgaxunuk tashlanmaydigan qilib tikish, yamash mumkin. Ustqurmayamoq kiyimlarning simmetriyasiga qarab bajariladi. Masalan, shimning tizzasi yirtilgan bo'lsa, koylak yengining tirsagi yoki bittacho'ntak yirtilgan bo'lsa, yamoq har ikkala tizzaga, ikkala tirsakka, ikkalacho'ntakka bir xil qilib solinadi, bunday yamoqni bezak yamoq deyiladi. Yamab bo'lingandan keyin bostirib dazmollanadi.

Kiyimning yirtilgan, teshilgan, kuygan, sitilgan joylari bo'lsa, yamoq solinadi. Yamoq solish kiyimning turiga qarab, masalan, oddiy yamoq solish kiyimning ustidan yoki tagidan yamoq qoyib bajariladi.

*Kiyimlarni tuzatishda ish o'rnini tashkil qilish.* Bajariladigan ishga qarab ish o'rni tayyorlanadi. Bajariladigan ishlar qo'lda tikish, tugma qadash, petlya tikish, yamoq solish, ilgak chatishdan iborat bo'lsa, stol va stulni yorug' yaxshi tushadigan joyga qoyiladi. Ish qutichasi vakerakli asboblari tayyorlanadi. Mashina va dazmol ishlari shu moslamalar turgan joyda bajariladi.

“Yamoq solish” mavzusidagi amaliy mashg'ulot quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

1. Yirtilgan joyni mo'ljallab, rangni moslab gazlama bo'laklaridan yamoq qirqib olinadi.
2. Kiyimning yirtilgan joyini, qirqib olingan yamoqni yaxshilab, tekis qilib dazmollanadi.
3. Yamoqni kiyimdagi yirtiq joyning tagiga qoyib ko'klab chiqiladi.
4. Yirtiqning atrofini qaychi bilan to'g'rilab qirqib chiqiladi va ichiga qayirib chetidan yashirin chok bilan tikiladi
5. Ko'klash choki olib tashlanadi, keyin chok dazmollanadi.

## **O'quvchilarga uyga topshiriqlar beriladi**

O'tilgan barcha mavzularni o'qib kelish. Testga va savol-javoblarga tayorgarlik qilish.

### **Kiyimlarni saqlash usullari. Kiyimga qarab turish qoidalar**

Kiyimni saqlash ham kiyinish madaniyatiga kiradi. Madaniy kiyinishga intilgan inson kiyimini toza tutishi, bejirim kiyinishi, dog', kir bo'lgan, g'ijimlangan kiyimni kiyimasligi, yaxshi dazmollab kiyishikerak. Har gal kiyinayotganda kiyimni yaxshilab ko'zdan kechirib, so'kilgan joylarini yaxshilab tikish, har bir tugma o'z o'rnida va mustahkamligiga ishonch hosil qilgandan keyingina kiyinish lozim.

Kiyimni ehtiyotkorlik bilan hamda o'z vaqtida, o'z o'rnida kiyilsa, u uzoq chidaydi vayangidek ko'rinadi. Shuning uchun uyda, maktabda, sport mashg'ulotlarida vazimatda kiyiladigan kiyimlarni avaylab, o'z vaqtida joyiga qoyib saqlash maqsadga muvofiqdir.

Hamma kiyim ham, ayniqsa, jun va kimyoviy tolali gazlamalardan tikilgan kiyimlar turli hidlarni tortadi, shuning uchun ham kiyimlarni changdan tozalab, shamollatib turish tavsiya qilinadi.

Kiyimlarni saqlash qoidalariga quyidagilarni kiritish mumkin:

1. Kiyimlarni iflos qilmaslik zarur.
2. Qo'lni yuvayotgandayengni shimarib olish kerak.
3. Uy yumushlarini bajarishda fartuk vayenglik kiyib olish zarur.
4. Maktabdan kelgach, maktab formasini yechib, uylik kiyimlarni kiyib olish va formani kiyim ilgichga (veshalkaga) ilib qoyish kerak.
5. Yerga o'tirmaslik, stuldayoki o'tirish uchun mo'ljallangan toza joyda o'tirish zarur. Kiyimlarni har kuni cho'tkalab tozalash kerak.
6. Kiyiladigan kiyimning hamma joyi toza va butun bo'liga e'tibor berish kerak, ya'ni:
  - a) tugmasi uzilgan bo'lsa, qadab olish;
  - b) ilgagi uzilgan bo'lsa, chatib qoyish;
  - v) so'kilgan choklarini o'z vaqtida tikish;

g) kiyimda yirtiq bo'lsa, uni yamash;

d) kiyimni doimo dazmollab yurish.

Har bir kiyim, u tikilgan gazlama turiga qarab alohida e'tibor talab qiladi: yuvish, dazmollash, kimyoviy tozalash qoidalari ifodalangan shartli belgilar kiyim choklariga tikib qoyilgan bo'ladi. Quyidashushartli belgilar ko'rsatilgan.

|                         |                                                                                   |                            |
|-------------------------|-----------------------------------------------------------------------------------|----------------------------|
| - Tozalanadi            |  | - Ma'lum haroratdayuviladi |
| - Ehtiyot bo'lishikerak |  | - Yuvish yaramaydi         |
| - Tozalash yaramaydi    |  | - Dazmollash mumkin        |
| - Oqartirish mumkin     |  | - Dazmollanmaydi           |

### **Yamoq solish texnologiyasi**

Kiyimlarni yirtilgan joylarini ko'zgaxunuk tashlanmaydigan qilib tikish, yamash mumkin. Ustqurmayamoq kiyimlarning simmetriyasiga qarab bajariladi. Masalan, shimning tizzasi yirtilgan bo'lsa, koylak yengining tirsagi yoki bittacho'ntak yirtilgan bo'lsa, yamoq har ikkala tizzaga, ikkala tirsakka, ikkalacho'ntakka bir xil qilib solinadi, bunday yamoqni bezak yamoq deyiladi. Yamab bo'lingandan keyin bostirib dazmollanadi.

Kiyimning yirtilgan, teshilgan, kuygan, sitilgan joylari bo'lsa, yamoq solinadi. Yamoq solish kiyimning turiga qarab, masalan, oddiy yamoq solish kiyimning ustidan yoki tagidan yamoq qoyib bajariladi.

*Kiyimlarni tuzatishda ish o'rnini tashkil qilish.* Bajariladigan ishga qarab ish o'rni tayyorlanadi. Bajariladigan ishlar qo'lda tikish, tugma qadash, petlya tikish, yamoq solish, ilgak chatishdan iborat bo'lsa, stol va stulni yorug' yaxshi tushadigan joyga qoyiladi. Ish qutichasi vakerakli asboblari tayyorlanadi. Mashina va dazmol ishlari shu moslamalar turgan joyda bajariladi.

### **AMALIY MASHG'ULOT: Yamoq solish**

**Kerakli asbob va moslamalar:**ish qutisi, santimetr lentasi, chizg'ich, bo'r, qalam, qaychi, gazlama bo'laklari, yamoq solinadigan kiyim, igna, tikuv mashinasi, angishvona.

*Ishni bajarish tartibi (3-rasm):*


6. Yirtilgan joyni mo'ljallab, rangni moslab gazlama bo'laklaridan yamoq qirqib olinadi.

7. Kiyimning yirtilgan joyini, qirqib olingan yamoqni yaxshilab, tekis qilib dazmollanadi.

8. Yamoqni kiyimdagi yirtiq joyning tagiga qoyib ko'klab chiqiladi.

9. Yirtiqning atrofini qaychi bilan to'g'rilab qirqib chiqiladi va ichiga qayirib chetidan yashirin chok bilan tikiladi

10. Ko'klash choki olib tashlanadi, keyin chok dazmollanadi.



3– rasm. Yirtilgan joygayamoq solish

**Mustahkamlash uchun savollar:**

1. Kiyimlarni saqlash usullarini aytib bering.
2. Kiyimlarga qarash qoidalari nimalardan iborat?
3. Yirtilgan joygayamoq solish ketma-ketligini aytib bering.

## **PAZANDACHILIKDA ISHLATILADIGAN TEXNOLOGIK JIHOZLAR VA ULARDAN FOYDALANISH**

**Sovutgich va muzlatgich, termos, mikroto'lqinli elektrpechlarning tuzilishi va ahamiyati, foydalanish texnologiyasi**

**Sovutgich va muzlatgich.** Ishlab chiqarish korxonalarida sovitgichlar kamerasidagi zarur harorat  $+6^{\circ}\text{C}$  dan  $-18^{\circ}\text{C}$  gacha bo'lgan turli hajmdagi sovitkich turlari ishlab chiqariladi.. Sovutgichlarning kompression (bir yoki ikki kamerali), termoelektrik xillari bor. Tashqi ko'rinishiga ko'ra polga va stolga o'rnatiladigan, osma, ko'chma (xaltatermos), kombinasiyalashgan (shkaf ko'rinishida hamdaoshxonamebeliga o'rnatilgan) bo'ladi.

*Kompression* sovitkichlarda kameragermetik agregati bilan sovitiladi. Sovitish agregati ixcham bo'lib, kam shovqin bilan ishlaydi, ishlatish vaqtida ishqalanuvchidetallarni almashtirish va moylash talab etilmaydi. Muzlatish kamerasida past harorat sovitish agregatining muntazam ravishda qisqa vaqt ishlashi natijasida hosil bo'ladi, bu esa elektr energiyani tejashgayordam beradi.



**4-rasm.** Zamonaviy maishiy sovitgich

*Termoelektrik* sovitkichlardayarim o'tkazgichli termoelementlar ishlatiladi. Ularda sovitish agregati va sovitish agenti bo'lmaydi. Ular shovqinsiz ancha uzoq vaqt ishlashi bilan boshqalardan farq qiladi.

*Ro'zg'or termostartlarida* (xaltatermos) sovitilgan mahsulotlar saqlanadi. Termostatdagi harorat10-12 soat davomida  $+10^{\circ}\text{C}$  atrofida bo'ladi. Bunda issiqlik sig'imi katta bo'lgan maxsus suyuqlik bilan to'ldirilgan plastmassaxaltacha ko'rinishidagi sovuqlik akkumulyatorlari ishlatiladi.


Termostatga mahsulot solishdan oldin akkumulyator 2-4 soat ro'zg'orda foydalaniladigan sovitgichning muzlatish kamerasiga qoyiladi. Bunday sovitgichlar yozdashahar atroflariga dam olishgachiqishda qulay bo'lishi uchun sumka ko'rinishida ishlab chiqiladi.

Ro'zg'orda ishlatiladigan sovitgichlarning xizmat muddati 15 yil va undan ortiqdir.

**Sovitgich** — past haroratni saqlab turuvchi issiqlikni o'tkazmaydigan

kameradir. Oziq-ovqat mahsulotlari va sovuq joyda saqlanish kerak bo'lgan predmetlarni saqlashda ishlatiladi. Sovutgichning ishlashi issiqlikni ish kamerasidan tashqarigachiqarishga asoslangan bo'lib, bunda issiqlik tashqi muhitda tarqalib ketadi. Sovutgichlar ikki turga bo'linadi: oziq-ovqat mahsulotlarini saqlaydigan o'rtacha haroratli kamera va past haroratli muzlatkichlar.

**Muzlatgich** — alohida pribor yoki oziq-ovqat mahsulotlarini muzlatish va saqlashga mo'ljallangan sovutkichning bir qismi hisoblanadi. Muzlatgichda harorat asosan  $-18^{\circ}\text{C}$  da bo'ladi. Oxirgi vaqtda ikki kamerali sovutkichlar keng tarqalgan bo'lib, ular o'zida ikkala komponentni birlashtirgan.



5-

**rasm.** Sovutkichning ishlash sxemasi  
turuvchi klapan (xladagent — issiqlikni bug'latkichdan kondensatorga ko'chiruvchi modda)

Muzlatgich 2-rasmda ko'rsatilgan sxema bo'yicha ishlaydi:

1. Kondensator — issiqlikni tashqi muhitga tarqatuvchi;

2. Kapillyar (juda ingichka naycha) — bosimlarning farqini xladagent moddasi yordamida tartibga solishga madad berib

3. Bug'latkich — sovutkichning ichki hajmidan issiqlikni tortib oluvchi;

4. Kompressor — kerakli bosimlar farqini hosil qiluvchi.

*Sovutkichdan foydalanish tartibi:*

Oziq – ovqat mahsulotlarining aynimasligi uchun oziq – ovqat mahsulotlarini sovutkichda saqlanish qoidalariga rioya qilish zarur. Zamonaviy muzlatkichlar turli-tuman oziq – ovqat mahsulotlarini saqlash uchun ko'plab kameralarga ega:

har bir kamera u yoki bu oziq – ovqat mahsulotlarini saqlashning maqbul haroratiga ega. Hatto oddiy sovutkichlarda ham har bir tokchasida tabiiy havo harorati sirkulyasiyasi farqlanadi, shuning uchun oziq – ovqat



**6-rasm.** Sharbat uchun shisha kolbali termoslar

mahsulotlarini to'g'ri joylashtirilishikerak. Past haroratli (harorat 0°C atrofida) joylarga tez buziladigan oziq – ovqat mahsulotlarini joylashtiriladi: yangi go'sht, baliq va hokazo. Tayyor mahsulotlarni (salatlar, kisel va h.k.) aksincha, yuqoriroq haroratdagi (8°C atrofida) bo'limlarda saqlanishikerak. Eskirib qolgan mahsulotlarni vaqtida yo'qotish zarur. Sovutgichga harorati xona haroratidan yuqori bo'lgan mahsulotlarni qoyish yaramaydi, bu sovutkichni buzilishiga olib keladi.

**Termos** — oziq – ovqat mahsulotlarini uzoq muddat atrof muhit haroratiga nisbatan pastroq yoki balandroq tarzda saqlaydigan issiqlikni o'tkazmaydigan maishiy idish. Termosni faqat sharbat va taom saqlash uchun ishlatilmasdan, undan turli xil damlamalarni va bo'tqalarni tayyorlashda ham foydalanish mumkin.

Termosning asosiy elementi — ikki qavat devorli, qaysiki ular orasidan havo siqib olinib issiqlikni termos va tashqi muhitdan vakuum hosil qilib saqlaydigan shishayoki zanglamaydigan po'latdan tayyorlangan kolba hisoblanadi. Termosning tashqi korpusi shisha kolba bilan birga plastmassadan yoki metaldan tayyorlanadi.

Zamonaviy maishiy termoslar mahsulotlarni saqlanishiga qarab quyidagi turlariga bo'linadi (4-6-rasmlar):

- *Sharbat uchun termoslar* — og'iz qismi ingichka bo'lib, uning diametri 25—55 mm gateng.
- *Pnevmatik nasosli termoslar* — bunday termos konstruksiyasida qopqog'ida bosilganda suyuqlikni chiqarib olish uchun tugmachasi bo'lib, yon tomonida suyuqlik chiqadigan teshikchasi ham mavjud. Bu termoslar stolda foydalanish uchun ishlatiladi.



**7-rasm.** Zanglamaydigan  
po'lat kolbali sharbat uchun  
termos

**8-rasm.** Termos-  
kuvshin

**9-rasm.** Pnevmatik  
nasosli termos

• *Oziq-ovqat saqlanadigan termoslar* — keng og'iz qismiga ega bo'lib, uning diametri taxminan korpus diametrigateng bo'ladi, ya'ni 65 mm dan 80 mm gacha. Birinchi va ikkinchi taomlarni, muzqaymoqni va boshqaoziq-ovqat taomlarini saqlashga mo'ljallangan..

• *Universal termoslar* — oziq-ovqat saqlanadigan termoslardan qo'shimcha ravishda konstruksiyasidasharbat quyish uchun bir oz torroq teshikda probka borligi bilan farqlanadi.

• *Qavat-qavat idishli oziq-ovqat saqlanadigan termoslar* — bunday termoslarda qavat-qavatqilib bir-biriga 2-3 dona plastikli yoki metall konteynerlar joylashtiriladi. Ularda bir vaqtning o'zida turli taomlarni, masalan, tushlik uchun birinchi va ikkinchi taomlarni hamda gazaklarni saqlash mumkin.

Termosda haroratni bir maromda ushlab turish vaqti uning hajmiga bog'liq, ya'ni qancha katta bo'lsashuncha ko'p muhlat issiqlik (yoki sovuq) saqlanadi.

**Mikroto'lqinli elektrpech** – [elektr asbob bo'lib](#), ovqatni tezlikda pishirish yoki isitish uchun mo'ljallangan hamda elektromagnit to'lqinlari yordamida mahsulotlarni muz holatidan tushirish foydalaniladi.

Mikroto'lqinli elektrpechning asosiy komponentlariga quyidagilar kiradi:

- [metall, metall purkalgan eshikcha](#), mahsulotlarni isitishga joylashtiriladigan kamera;
- [transformator](#) — elektropechning yuqori chastotali oziqlanish manbai;
- boshqarish zanjiri va kommutasiya (elektr tokining yo'nalishini o'zgartirish);
- magnetron dan kameraga nurni tarqatuvchi to'lqin uzatkich;
- yordamchi elementlar:
  - aylanma stol — mahsulotni har tomondan bir xilda isitish uchun zurur;
  - sxema va zanjir, boshqarishni ta'minlaydigan ([taymer](#)) vaxavfsiz moslama;
  - [ventilyator](#), magnetronni sovitadi va kamerani shamollatadi.



**10-rasm.** Mikroto'liqlik elektrpech

Mikroto'liqlik elektrpechning quvvati 500 dan 2500 [Vatt](#) gacha oraliqda turadi. Barcha maishiy elektrpechlarni issiqlik tarqatish quvvatini foydalanuvchi tomonidan boshqarish mumkin. Buning uchun qizdirgich (magnetron) vaqti-

vaqti bilan quvvatni boshqarib turadigan qurilmayoqiladi va o'chiriladi. Bu

yoqilib va o'chirilib turiladigan holatni elektrpechning ishlashi davomida pechning tovushini o'zgarishiga qarab hamda mahsulotning tashqi ko'rinishining o'zgarishiga qarab kuzatish mumkin.

Mikroto'liqlik nurlar metall predmetlar ichiga kira olmaydi, shuning uchun metall idishlarda ovqatni tayyorlash yoki isitish tavsiya etilmaydi. Isitish jarayonida pechning ichida bo'lgan metall idishlar va metall priborlar (qoshiq, vilkalar) uni tezda ishdan chiqarishi mumkin. Tilla hoshiyali idishlarni mikroto'liqlik elektrpechlarga joylab mahsulotlarni isitish tavsiya etilmaydi.

Mikroto'liqlik elektrpechlarda germetik tarzda yopilgan suyuqliklarni va butun tuxumni isitish yaramaydi, chunki suyuqlikning qattiq parlanishi natijasida uning ichida bosim yuqori bo'lib u portlashi ham mumkin.

#### **Mustahkamlash uchun savollar:**

1. Ishlab chiqarish korxonalarida sovutgichlarning qanday turlari ishlab chiqariladi?
2. Tashqi ko'rinishiga ko'ra sovutgichning qanday turlarini bilasiz?
3. Kompresion, termoelektrik sovutgichlar va ro'zg'or termostatlari haqida ma'lumot bering.
4. Ro'zg'orda ishlatiladigan sovutgichlarning xizmat muddati qancha yilni tashkil etadi?
5. Sovutgichlar necha turga bo'linadi?

6. Sovutkichning ishlash sxemasini aytib bering.
7. Sovutkichdan foydalanish tartibini qanday izohlash mumkin?
8. Termos deb nimaga aytiladi va uning qanday turlarini bilasiz?
9. Termosning asosiy elementini izohlab bering.
10. Mikroto'qinli elektrpechdan nima maqsadlarda foydalaniladi?
11. Mikroto'qinli elektrpechning asosiy komponentlariga nimalar kiradi?
12. Mikroto'qinli elektrpechdan qanday foydalaniladi?

## **7 SINF. TEXNOLOGIYA VA DIZAYIN YO'NALISHI**

### **UY RO'ZG'OR BUYUMLARINI TA'MIRLASH**

#### **1 mashg'ulot. Shahar va qishloq uylarida suv, gaz, elektr energiyasi va issiqlik ta'minoti tizimi va undan foydalanish qoidalari**

##### **Dars maqsadi:**

**Ta'limiy:** o'quvchilarga shahar va qishloq uylarida suv, gaz, elektr energiyasi va issiqlik ta'minoti tizimi va undan foydalanish qoidalari haqida umumiy ma'lumotlar berish;

**Tarbiyaviy:** texnika xavfsizligi qoidalari, shahar va qishloq uylarida suv, gaz, elektr energiyasi va issiqlik ta'minoti tizimi va undan foydalanish qoidalari ishlarini bajarishda sanitariya gigiena talablariga rioya etishga o'rgatish;

**Rivojlantiruvchi:** o'quvchilarning shahar va qishloq uylarida suv, gaz, elektr energiyasi va issiqlik ta'minoti tizimi va undan foydalanishga oid ko'nikma va malakalarini shakllantirish, ilmiy izlanishga, ijodkorlikka yo'naltirish.

**Moddiy texnik jihatdan jihozlash va ko'rgazmali qurollar:** maktab ustaxonalarida ishlashdagi xavfsizlik texnikasiga oid jadvallar, namuna materiallar, proektsion materiallar, televideomateriallar, elektron materiallar, kompyuter, plakatlari, diapozitivlar, rasmlar, chizmalar, jadvallar, diagrammalar, darsliklar, metodik qo'llanma, ma'ruza matni, lug'atlar, ma'lumotnomalar, test materiallari, topshiriq kartochkalari, anketalar, tabiiy namunalar, xom-ashyo namunalari, test dasturlari, kodoskop, mustaqil bajarish topshiriqlari.

**Foydalaniladigan metodlar:** og'zaki, ko'rgazmali, "blits", "aqliy hujum" kabi interaktiv metodlar.

## **Reja:**

1. Tashkiliy qism-5
2. O'tilgan mavzuni takrorlash-10
3. Yangi mavzuning bayoni-50
4. Yangi mavzuni mustahkamlash-20
5. Uyga vazifa berish-5

## **Mashg'ulotning borishi**

**1. Tashkiliy qism.** Salomlashish, davomatni aniqlash, navbatchini tayinlash, o'quvchilarning mashg'ulotga tayyorgarlik darajasini nazorat qilish.

**2. O'tilgan mavzuni takrorlash.** Kovsharlash, Elektrotexnika ishlarini tashkil qilish, elektr o'tkazish simlari, montaj qilish, izolyatsiyalash, elektr asboblari bilan ishlash usullariga oid kasb-hunarturlarini o'rgatish. O'qituvchi o'quvchilarning o'y-ro'zg'or buyumlarini ta'mirlash haqidagi bilimlarini "blits" savollari orqali aniqlaydi.

## **3. Yangi mavzuning bayoni.**

**Kirish yo'riqnomasi:.** Shahar va qishloq uylarida suv, gaz, elektr energiyasi va issiqlik ta'minoti tizimi va undan foydalanish ishlarini bajarish, xizmat ko'rsatish sohalari haqida ma'lumot beriladi. Darsda o'qituvchi xavfsizlik texnikasi bilan tanishtiradi. Ushbu mavzuni o'tishda asosiy vazifalar qoplamalari hamda mebellarning laklangan va qoplamali yuzalarini saqlash tadbirlari va kichik ta'mirlash ishlarini bajarishdan iborat.

**Joriy yo'riqnoma.** O'quvchilarga mavzu yuzasidan quyidagi ma'lumotlar beriladi: Shahar va qishloq uylarida suv, gaz, elektr energiyasi va issiqlik ta'minoti tizimi va undan foydalanish qoidalarini yuzasidan tushunchalar beriladi.

**Yakuniy yo'riqnoma:** Yakuniy instruktaaj berish paytida o'qituvchi baholar qoyadilar (nazariya masalalari va ilgari o'rganilgan materialni bilishi; bilimlarni amalda qo'llay olishi; ish usullarini to'g'ri bajarishi; xavfsizlik texnikasi qoidalariga rioya qilishi; ish o'rnida belgilangan tartibni qo'llab-quvvatlashi; chizmani o'qiy olishi; topshiriqni mustaqil bajara olishi; bajargan ishning sifati;

agar ish me`yorlanmsa, belgilangan me`yorda bajarishi). Bunda o`quvchilarning o`quv-ishlab chiqarish topshiriqlarini bajarishga qiziqishlari ancha ortadi.

#### **4. Yangi mavzuni mustahkamlash.**


1. Shahar va qishloq uylarida suv, gaz, elektr energiyasi va issiqlik ta`minoti tizimi va undan foydalanish qoidalarini o`rganiladi.

#### **5. Uyga vazifa berish:**

1. Darslikdagi 33-mavzuni o`qib kelish va amaliy mustaqil ishlarni bajarish.
2. O`tilgan mavzu yuzasidan esse yozib kelish.
3. Uyda nosoz buyumlarda kichik ta`mirlash ishlarini bajarishni mashq qilish.
4. Savollarga javob berish.

### **Shahar va qishloq uylarida suv, gaz, elektr energiyasi va issiqlik ta`minoti tizimi va undan foydalanish qoidalarini.**

**Suv ta`minoti tizimi.** Suv iste`moli tartibi, binolarning turlari, shuningdek texnologik va yong`in xavfsizligi talablaridan kelib chiqqan holda suv tarmoqlari: boshi berk; aylanali, kombinatsiyalashgan ko`rinishda bo`lishi mumkin. Boshi berk suv tarmoqlari asosan ta`minotda tarmoq yoki uning bir qismi ishdan chiqishi natijasida to`xtalishlar bo`lib turadigan joylarda quriladi. Bular turar joy, ma`muriy va ishlab chiqarish binolari bo`lishi mumkin (49-rasm).



1

**1-rasm.** Turar joy binosining suv ta`minoti sxemasi

Aylanali suv tarmoqlari asosan ko'p qavatli uylarning uzluksiz ta'minotini amalga oshirish zaruratini e'tiborga olib quriladi. Aylanali tarmoqlar tashqi suv quvuri bilan bir nechta ulanishga ega bo'lib, ulardan biri uzilganda ham binoning suv bilan ta'minlashini to'xtat qolmaydi.

Kombinatsiyalashgan suv tarmoqlari boshi berk va aylanali quvurlardan tarkib topgan bo'lib, suvga ulanadigan qurilmalar bir-biridan katta oraliqda joylashgan yirk binolardla qo'llaniladi.

Tabiiy gaz iqtisodiy jihatdan eng qulay energiya manbalaridan biri hisoblanib, respublikamizda aholi turar joylarini bu kabi arzon va samarali yoqilg'i bilan ta'minlashga alohida e'tibor qaratilmoqda. Shu bilan birga biz gazdan foydalanishda xavsizlik choralariga qat'iy rioya qilmog'imiz lozim.

Xonadonning gaz ta'minoti tarmog'i gaz eltuvchi quvur, taqsimlovchi gaz quvuri, gaz oqimini boshqaruvchi uskunalar, gaz sarfi hisoblagichi hamda gazdan foydalanish qurilmalari kiradi.


Gaz tarmoqlarini o'tkazishda quyidagilarga qat'iy amal qilinadi: quvur po'lat trubalarni payvandlash asosida qurilib, zarur uskunalar bilan rezbali birikmalar orqali ulanadi; barcha gaz quvurlari suvga chidamli moybo'yoq bilan bo'yaladi; gaz quvurlari asosan oshxona, yo'lak va boshqa turar joy sifatida foylanalimaydigan xonalardan o'tkaziladi; quvur hojatxona yoki vanna orqali, shuningdek eshik yoki oyna romlari orqali o'tkazilishi taqiqlangan.

Elektr ta'minoti xonadonimiz yoritilishini, isitilishini, maishiy texnikalarni ishlashini va boshqa qulayliklarni ta'minlashga xizmat qiladi. Xonadonning elektr ta'minoti mas'uliyatli ish bo'lib, maxsus tayyorlangan mutaxassis tomonidan bajariladigan, yuqori darajada kasbiy malaka va mahorat talab qiluvchi mehnat hisoblanadi. Chunki, elektr tarmog'idagi atiga bitta ishonchsiz ulanish kechinchalik yong'in keltirib chiqarishga, noto'g'ri ulangan o'tkazgich esa uyda yashovchilarnig jarohatlanishiga yoki qimmatbaho uskunalarining ishdan chiqishiga olib kelishi mumkin.

Elektr bilan bog'liq barcha operatsiyalar, hatto yoritish lampasini almashtirish ham katta ehtiyotkorlik bilan bajarilishi lozim. Xonadonga elektr tarmog'i

o'tkazish yoki uni ta'mirlashda esa xavsizlik va ishonchlilik borasidagi eng zamonaviy talablarga rioya qilish va sifatli jihozlardan foydalanish lozim.

Xonadon elektr ta'minotining namunaviy sxemasi o'zida kirish fideridagi avtomatik viklyuchatel, elektr energiyasi hisoblagichi, himoyalovchi o'chirish qurilmasi, xonalardagi rozetka va viklyuchatellardan tarkib topadi (12-rasm).



**12-rasm.** Xonadon elektr ta'minotining namunaviy sxemasi

### **Uy va xonadonlarni ta'mirlash ishlarining asosiy turlari.**

#### **Ta'mirlashda qollaniladigan qurilish materiallari va asosiy ish asboblari**

Uy va xonadonlarni ta'mirlash ko'p mehnat va sarf-harajat talab qiluvchi jarayon hisoblanadi. Shu sababli, bu kabi tadbirni boshlashda ta'mirlashning aynan qaysi turiga ehtiyoj mavjudligi aniq baholab olishini lozim. Hozirda ta'mirlashning kosmetik, kapital, elita turlari farqlanadi.

Kosmetik ta'mirlash katta sarf-harajat talab qilmaydigan, eng sodda va arzon

ta'mirlash turi hisoblanib, u minimal mablag` va vaqt sarfi bilan xonadonning tashqi ko'rinishini yangilashga qaratiladi. Xonadonda umumiy ishlov berish tadbirlari bajarilib, bunda santexnik jihozlari, xona interer dizayni va devorlar konstruksiyasini o'zgartirish bilan bog'liq ishlar bajarilmaydi. Bunda asosiy vazifa shift va devorni tekislash va suvoq qilish, oboy, plintus, pol qoplamalarini almashtirish bilan bog'liq bo'ladi. Odatdagi kosmetik ta'mirlash xonadon egalarining kuchi bilan amalga oshirilishi mumkin.

Kapital ta'mirlash nisbatan ancha murakkab va qimmatbaho ta'mirlash turi hisoblanib, unda barcha kommunikatsiya tarmoqlari almashtirilishi, xona devorlari konstruksiyalari o'zgartirilishi asosiy tadbirlar qatoriga kiradi. Bu kabi ta'mirlash ishlari albatta tegishli soha mutaxassislari va ustalarini jalb qilgan holda bajarilib, uning natijasiga ko'ra amalda yangi xonadonga ega bo'lasiz.

Elita usulida ta'mirlash ham kapital ta'mirlashga o'xshaydi, faqatgina u zamonaviy qurilish va ishlov berish materiallari, ilg'or texnologiyalarni qo'llagan holda, yuksak malakali mutaxassislardan tomonidan amalga oshiriladi. Shuningdek, bu ta'mirlash turida mutaxassis dizayner tomonidan xonadonning individual dizayn loyihasi tayyorlanib, toki mebel, maishiy texnika va bazaklarni o'rnatishgacha bo'lgan barcha bosqichlarda uning o'zi bevosita ishtirok etadi.

Alohida aniqlik talab qilmaydigan o'lchash ishlarida yig'ma va rulet metrlardan foydalanish mumkin. O'lchashda metrning to'liq ochilganligi, zarur uzunlikka ega ekanligi hamda tarang tortilganligiga e'tibor qaratish lozim.

Nisbatan aniqroq o'lchashlar uchun shtangensirkuldan foydalaniladi. Xonadonni ta'mirlashda uning yordami bilan bir necha millimetrdan bir necha detsimetrgacha o'lchamdagi teshiklar diametri, detallar qalinligini o'lchash mumkin. Quvurlar, simlar, yupqa listli metallar qalinligini o'lchashda mikrometrdan, tashqi o'lchamlarni olishda kronsirkuldan, ichki o'lchamlarni olishda nutromerdan foydalaniladi.

### **Qurilish va ta'mirlash bilan bog'liq kasb-hunarlar**

Siz maktabni muvaffaqiyatli tugallagach qurilish va ta'mirlashga oid quyidagi

kasb-hunarlarni egallashingiz mumkin:

- turar joy va jamoat binolarini loyhalovchi va quruvchi;
- aholi yashash joylarini rejalash va obodonlashtirish loyihachisi;
- turar joy va jamoat binolarini qayta tiklash va ta'mirlash loyihachisi;
- ko'chmas mulkni baholash va davlat ro'yxatidan o'tkazish inspektori;
- turar joy va jamoat binolaridan foydalanish texnigi;
- turar joy va jamoat binolaridan foydalanish texnigi;
- aholi yashash joylarini rejalash va obodonlashtirish loyihachisi;
- bino va inshootlar hududlarini obodonlashtirish loyihachisi.

## **SERVIS XIZMATI YO'NALISHI**

### **BUYUMLARNI TA'MIRLASH TEXNOLOGIYASI**

#### **2-mashg'ulot: Iste'moldan chiqqan buyum o'lchamiga qarab, bolalar kiyimining andozasini tayyorlash va tikish**

##### **Dars maqsadi:**

**Ta'limiy:** O'quvchilarga iste'moldan chiqqan buyum o'lchamiga qarab, bolalar kiyimining andozasini tayyorlash va tikish yo'llarini o'rgatish.

**Tarbiyaviy:** O'quvchilarni amaliy ish jarayonida o'zida, sifatli vatez ishlashga odatlantirish

**Rivojlantiruvchi:** O'quvchilarda iste'moldan chiqqan buyum o'lchamiga qarab, bolalar kiyimining andozasini tayyorlash, tikish va bezashda badiiy didlarini o'stirish.

**Moddiy texnik jihatdan jihozlash va ko'rgazmali qurollar:** chok turlari to'qilgan namunalar, to'qish uchun iplar, ilmoq, mavzuga oid buklet, plakatlar va slaydlar, o'quv qurollari, kompyuter

##### **Dars o'tish yuzasidan metodik tavsiyalar**

Bu mavzuni o'qitishda munozara, savol-javob tarzida olib boriladi. Shuningdek, kompyuter texnikasi yordamida slaydlar va videomateriallar namoyish etish mumkin. Iste'moldan chiqqan buyumlardan bolalar kiyimlarining vanda y turlarini tikish usullari ko'rsatmali tarzda bajarib o'rgatiladi. O'quvchilar

burilgan chizmalardan foydalanib andoza tayyorlaydilar, ularning ishlari nazorat qilib turiladi va ish davomida yo'riqnomalar berib boriladi. Xato va kamchiliklar mashg'ulot jarayonida tahlil qilinadi va to'g'ri bajarish bo'yicha yo'l-yo'riq beriladi.

### **Dars mashg'uloti yuzasidan nazariy ma'lumotlar**

Bir oz tikishni biladigan barchaayollar iste'moldan yoki modadan chiqqan buyumlardan turli xil bolalar kiyimlarini tayyorlashlari mumkin. Masalan, erkaklar shimlaridan qiz bolalar uchun yubka, sarafan, 5 yoshli bolalar uchun paltoyoki kurtka, o'g'il va qiz bolalar uchun shim yoki shortik; erkaklar pidjagidan sport uslubidagi kurtkalarni, koylagidan esa o'g'il bolalarga koylak, qiz bolalarga esa bluzkalar tikish mumkin.

Buyumlarga qayta ishlov berishda istalgan fasondagi buyumni tayyorlab bo'lmaydi. Masalan, shimdan faqat 4 bo'lakli yubkalarni, bo'lakli yubkalardan esaxuddi shunchayoki ko'proq bo'lakli yubkalarni, koylaklardan esa maydadetallari ko'p bo'lgan qiz bolalar koylaklarini tikish mumkin.

Agar buyumning o'ng tomoni o'z ko'rinishini yo'qotgan yoki oqargan bo'lsa, yaratilayotgan buyumning o'ngi qilib uning teskari tomonini olish mumkin. Iste'moldan chiqqan buyumni avval choklaridan ehtiyotkorlik bilan so'kiladi, iplardan tozalanadi, yuviladi va dazmollanadi. Dazmollangan buyumdetallariga tayyorlangan bolalar kiyimlari andozalari qoyib bichiladi. Agarda tikilayotgan buyum uchun asosiy gazlama bo'laklari yetmasa, u holda asosiy gazlama rangiga va fakturasiga mos ravishda boshqayordamchi gazlama bo'laklaridan foydalanish mumkin. Bunda kombinatsiyalashgan buyum hosil bo'ladi. Agardayordamchi gazlama bo'lagi yangi bo'lsa, u holda buyumni bichishdan oldin bu gazlamani yuvib dazmollash kerak, chunki buyumyuvilganda bu bo'laklari kirishmasligi uchun hamda boshqa bo'laklari kabi bir xilda ko'rinishga ega bo'lishi uchun.

Iste'moldan chiqqan buyum o'lchamiga qarab, bolalar kiyimining andozasini tayyorlashda albatta bu buyumdetallariga qarash va bolalar kiyimlari modellarini chizib, so'ngi andozalarni tayyorlash tavsiya etiladi.

### **O'quvchilarga uyga topshiriqlar beriladi**

O'quvchilarga milliy qo'g'irchoqlar andozasini tayyorlab kelish topshiriladi

**Iste'moldan chiqqan buyum o'lchamiga qarab, bolalar kiyimining  
andozasini tayyorlash va tikish**

Bir oz tikishni biladigan barchaayollar iste'moldan yoki modadan chiqqan buyumlardan turli xil bolalar kiyimlarini tayyorlashlari mumkin. Masalan, erkaklar shimlaridan qiz bolalar uchun yubka, sarafan, 5 yoshli bolalar uchun paltoyoki kurtka, o'g'il va qiz bolalar uchun shim yoki shortik; erkaklar pidjagidan sport uslubidagi kurtkalarni, koylagidan esa o'g'il bolalarga koylak, qiz bolalarga esa bluzkalar tikish mumkin.

Buyumlarga qayta ishlov berishda istalgan fasondagi buyumni tayyorlab bo'lmaydi. Masalan, shimdan faqat 4 bo'lakli yubkalarni, bo'lakli yubkalardan esaxuddi shunchayoki ko'proq bo'lakli yubkalarni, koylaklardan esa maydadetallari ko'p bo'lgan qiz bolalar koylaklarini tikish mumkin.


Agar buyumning o'ng tomoni o'z ko'rinishini yo'qotgan yoki oqargan bo'lsa, yaratilayotgan buyumning o'ngi qilib uning teskari tomonini olish mumkin. Iste'moldan chiqqan buyumni avval choklaridan ehtiyotkorlik bilan so'kiladi, iplardan tozalanadi, yuviladi va dazmollanadi. Dazmollangan buyumdetallariga tayyorlangan bolalar kiyimlari andozalari qoyib bichiladi. Agarda tikilayotgan buyum uchun asosiy gazlama bo'laklari yetmasa, u holda asosiy gazlama rangiga va fakturasiga mos ravishda boshqayordamchi gazlama bo'laklaridan foydalanish mumkin. Bunda kombinatsiyalashgan buyum hosil bo'ladi. Agardayordamchi gazlama bo'lagi yangi bo'lsa, u holda buyumni bichishdan oldin bu gazlamani yuvib dazmollash kerak, chunki buyumyuvilganda bu bo'laklari kirishmasligi uchun hamda boshqa bo'laklari kabi bir xilda ko'rinishga ega bo'lishi uchun.

Iste'moldan chiqqan buyum o'lchamiga qarab, bolalar kiyimining andozasini tayyorlashda albatta bu buyumdetallariga qarash va bolalar kiyimlari modellarini chizib, so'ngi andozalarni tayyorlash tavsiya etiladi.

**Iste'moldan chiqqan buyum o'lchamiga qarab, bolalar kiyimining  
andozasini tayyorlash va tikish**

***Andozaning o'lchamini o'zgartirish.*** 14 va 15-rasmlarda ko'rsatilgan andoza

nusxasini kattalashtirish shuandoza ustiga ixtiyoriy kattalikdagi (bunda koylakning ko'krak chizig'i boyicha razmeri 52 yoki 56 sm ni tashkil etishiga e'tibor bering) o'zaroteng kvadratlardan chiziladi. Bunda kvadratlar qancha mayda bo'lsa, andozaning nuqtalari shunchalik aniq ko'chiriladi va konturlarining nusxasi ham oson chiziladi. Millimetrli qog'oz yoki toza qog'ozga buyum kattaligiga to'g'ri keladigan to'g'ri to'rtburchak chizib, uni andozadagi kvadratlar soni qancha bo'lsa, shuncha kvadratlarga bo'linadi. Shundan keyin kataklar boyicha asl nusxadagi andozaning asosiy nuqtalari toza to'rga ko'chiriladi. Bu nuqtalarni ravon chiziq bilan ehtiyotlab birlashtirib andozaning kattalashtirilgan nusxasi hosil qilinadi. Rasm nuqtalarini oson topish uchun chizilgan to'rning ikki tomoniga raqamlar qoyiladi (13-rasm).





**13-rasm.** Nusxalarni kattalashtirish usuli


**AMALIY MASHG'ULOT: Kerakli asbob-uskuna va ashyolar:** stol, stul, tikuv mashinasi, dazmol, iste'moldan chiqqan buyumni so'kib dazmollangan gazlama bo'laklari, furnituralar, igna, angishvona, qaychi, santimetr lenta, gazlama rangiga mos 40-50-raqamli g'altak iplar, to'g'nog'ichlar, bezak tasmalar va bolalar kiyimlari andozalari.

*Ishni bajarish tartibi:*

1. 14 va 15-rasmdagi qiz bolalar koylagi va o'g'il bolalar shortigi andozalari kattalashtirib, kerakli razmerda tayyorlab olinadi.



**14-rasm.** Kengaygan yubka bo'laklaridan qiz bolalar ko'ylagini bichish



**15-rasm.** Uzun shimdan bolalar uchun kaltashim – shortikni bichish

2. Tayyorlangan andozalarni 14 va 15-rasmda ko'rsatilganidek joylashtirilib, bichib olinadi.
3. Qiz bolalar koylagini va o'g'il bolalar shortigini tikish jarayonxaritasi boyicha tikiladi.
4. Buyumlar turli iplardan tozalanib, dazmollanadi, petlya ochilib, tugma qadaladi.

**Mustahkamlash uchun savollar:**

1. Iste'moldan chiqqan buyumlardan foydalanishning ahamiyati nimada?
2. Iste'moldan chiqqan buyumlar qanday qilib bolalar kiyimlarini tikishga tayyorlanadi?
3. Kattalar buyumlaridan bolalarning qanday buyumlarini tayyorlash mumkin?
4. Rasmlı andozalarni qanday qilib kerakli razmerga kattalashtirish mumkin?
5. Qiz bolalar koylagini tikish bosqichlarini aytib bering.
6. O'g'il bolalar shortigini tikish bosqichlarini aytib bering.
7. Buyumga oxirgi ishlov berishda nima ishlar qilinadi?

## Adabiyotlarro'yxati

1. Karimov I.A. Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. – T.: Sharq , 1997. – 64 b.
2. DavlatovK. Mehnatvakasbta'limtarbiyasidanamaliymashg'ulotlar. – Toshkent: O'qituvchi,1995. - 206 b.
3. Davlatov K., Varob`ev A., Karimov I.«Mehnat va kasb ta'limi, tarbiyasi hamda kasb tanlash nazariyasi va metodikasi». T.: O'qituvchi, 1992.
4. Karimov I."Mehnat ta'limi o'qitish texnologiyalari" o'quv – uslubiy qo'llanma. Qo'qon 2013
5. Muslimov N.A., Sharipov SH.S., Qo'ysinov O.A. O'rta maxsus, kasb-hunar va oliy ta'lim integratsiyasi. Metodik qo'llanma. – T.: Nizomiy nomidagi TDPU. 2006. – 47 b.
6. Pedagogikamaliyot. Metodikqo'llanma / SharipovSH.S., IsmoilovaM., SanaqulovX., MullaxmetovR., Qo'ysinov O.A. –T.: NizomiynomidagiTDPU. 2006. – 28 b.
7. SayidaxmedovN. Pedagogikamaliyotdayangitexnologiyalarniqo'llashnamunalari. – Toshkent: RTM, 2000. – 46 b.
8. SharipovSh.S., ShonazarovR., Qo'ysinovO.A., NasriddinovaG. Kasbtanlashgayo'llashfanidanlaboratoriyamashg'ulotlari. Metodikqo'llanma–Toshkent: NizomiynomidagiTDPU, 2007. –48 b.
9. Sharipov Sh., Muslimov N.,”Texnik ijodkorlik va dizayn “Toshkent – 2007
10. Sharipov va b. Mehnat ta'limi darsligi. 5 sinf. –T.: “Sharq” nashriyoti. 2012. 250 b.
11. Yakubova H.S.”Mehnat ta'limi xalq hunarmandchiligi darslarida ta'lim texnologiyalarini qo'llash.” metodikqo'llanma. Toshkent 2011.
12. Qoysinov O.A., Sattorov V.N., Yakubova H.S. “Mehnat ta'limidan amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish metodikasi.” metodik qo'llanma.Toshkent 2011.